

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

TO‘XTAMISHEV ABDURASUL ABDURAZZOQ O‘G‘LI

**XITOIY TILIDAGI “是 shì” ELEMENTLI HOSILALARNING
FUNKSIONAL – SEMANTIK XUSUSIYATLARI VA O‘ZBEK TILIDAGI
MUQOBILLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

To'xtamishev Abdurasul Abdurazzoq o'g'li

Xitoy tilidagi “是 shì” elementli hosilalarning funksional – semantik xususiyatlari
va o'zbek tilidagi muqobillari 3

Тухтамишев Абдурасул Абдураззок угли

Функционально-семантические особенности производных с элементом “是
shì” в китайском языке и их эквиваленты в узбекском языке 25

Tukhtamishev Abdurasul Abdurazzok ugli

Functional-semantic features of derivatives with the element “是 shì” in chinese
and their equivalents in uzbek 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 53

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

TO‘XTAMISHEV ABDURASUL ABDURAZZOQ O‘G‘LI

**XITOIY TILIDAGI “是 shì” ELEMENTLI HOSILALARNING
FUNKSIONAL – SEMANTIK XUSUSIYATLARI VA O‘ZBEK TILIDAGI
MUQOBILLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/Fil1665 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.samdchti.uz hamda «Ziyonet» Axborot ta'lim portali www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Safarov Shahriyor Safarovich filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Xayrullayev Xurshid Zayniyevich filologiya fanlari doktori, professor
	Nosirova Saodat Abdullayevna filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot	O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “___” _____ soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand, Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks: (99878) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand, Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil “___” _____dagi №___ raqamli reyestr bayonnomasi).

A.A.Yaxshiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

G'.Q.Mirsanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, dotsent

N.Z.Nasrullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi o'rinbosari, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida olam manzarasini lisoniy voqelantirishda til birliklarining ishtirokini o'rganish antroposentrik yondashuvning muammolaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Har qanday tilga xos konseptual modellashgan tizimlar o'rtasidagi umumiy va farqli jihatlar lisoniy kategoriyalar haqidagi nazariy qarashlar uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda. So'nggi yillarda ayniqsa, xorijiy tillar tizimini grammatik tabiati, ma'no ifodalash usullari, pragmatik imkoniyati bilan bog'liq holda tadqiq qilishda yangicha yondashuvlar yuzaga keldi. Shu jumladan, nutq tizimida faol ishtirok etadigan grammatik funksional unsurlarning maqomini belgilash, ularning ifoda imkoniyatlarini aniqlashtirish muammosi dolzarbligini saqlab kelmoqda.

Dunyo ilmiy markazlarida olamning konseptual manzarasini anglash va uni lisoniy ifodalashga undaydigan izlanishlarga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Ma'lumki, xitoyshunoslik sohasida xitoy tilidagi 是 shì unsurining vazifaviy va ma'no xususiyatlari to'liq yoritilmagan. Buni inobatga olgan holda, mazkur tadqiqotda ushbu unsurning tizimiy xususiyatlari va taraqqiyot bosqichlarini tahlil qilish bilan birgalikda, uning o'zbek tilidagi muqobillarini aniqlash rejalashtirilmoqda. Ushbu mavzuning dolzarbligi 是 shì elementi ishtirokidagi hosilalarning funksional-semantik maqomini o'rganish zarurati bilan belgilanadi. Zero, tillarning o'ziga xos qonuniyatlarini ochib berish fan rivoji uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi. Tillararo muqobilliklarni aniqlash, ular o'rtasidagi alamorf va izomorf holatlarni metodik jihatdan belgilanishi zamonaviy chog'ishtirma tilshunoslikning muhim talabidir.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar davrida O'zbekiston va Xitoy Xalq Respublikasining hamkorlik aloqalari yangi bosqichga ko'tarib, ikki davlat o'rtasida ilm-fan, madaniyat, iqtisodiyot sohasida munosabatlar tobora mustahkamlanib bormoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev qayd etganidek, "O'zbekiston Xitoyni qadimiy tarix va noyob madaniyat, ulkan salohiyatga ega, jahon iqtisodiyotining yetakchilaridan bo'lgan va o'z maqsadlari yo'lida qat'iy borayotgan mamlakat sifatida biladi"¹. Bu boradagi vazifalarni amalga oshirish uchun xitoy tili tizimiga xos grammatik-leksik hodisalarni ilmiy jihatdan o'rganish va til ta'limi uchun muhim bo'lgan tavsiyalarni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022 yil 18 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2020-yil 16-apreldagi PQ-4680-son

¹ Mirziyoyev Sh.M. 2017-yil 11-mayda XXRga o'tkazilgan davlat tashrifi doirasida Xitoy Raisi Si Dzinpin bilan uchrashuvda so'zlangan nutq // O'zbekiston-Xitoy: strategik sheriklik va do'stlik munosabatlarini yanada rivojlantirish yo'lida: www.uza.uz. 12-05-2017.

“Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021 yil 25 yanvardagi PQ-4963-son “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021 yil 19 maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi, shuningdek, mazkur sohada qabul qilingan me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ham ushbu dissertatsiya ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hozirgi kunda xitoy tili grammatik tizimini o‘rganish masalasi tilshunoslikning murakkab va shu bilan birga, dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Xitoy tiliga oid tadqiqotlar chet el hamda mamlakatimiz olimlari tomonidan keng miqyosda olib borilmoqda.

Qadimgi xitoy tilshunosligi va zamonaviy xitoy tilini ilmiy o‘rganish borasida o‘zbek olimlari R.Rasulov, S.A.Nasirova, S.A.Xashimova, F.Hasanova, U.X.Mavlyanova, S.T.Mustafayeva, A.A.Karimov, L.A.Sultanova va boshqalar² samarali ishlar olib borishgan. R.Rasulovning qaydicha, xitoy tilshunosligi, ayniqsa, XVII – XIX asrlarda keng miqyosda rivojlandi. Bu davrlarda tarixiy fonetika, etimologiya va sintaksisga (sintagmaga) oid faktlar ustida ish olib borildi. Shuningdek, tanqidiy matnshunoslik taraqqiy qildi. Xitoy tilshunosligi taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan ota bola Van Nyan – Sun (1744-1832) va Van In Chji (1766-1834) Xitoy grammatikasining asoschilari sifatida tan olinadi. Xitoy tilshunoslari so‘z turkumlari doirasida mustaqil va yordamchi so‘zlarni farqlaganlar. Mustaqil so‘zlarni ot, sifat va fe‘l turkumiga ajratganlar.

Xitoy tili tizimidagi 是 shì elementining grammatikalashuvi va turli ma’no xususiyatlarini kasb etishiga doir fikr-mulohazalarni Sin Fui, 朱晓星 (Zhū Xiǎoxīng), 黑维强 (Hēi Wéi Qiáng), 刘丹青 (Liú Dānqīng), 吕叔湘 (Lǚ Shūxiāng), 赵元任 (Zhào YUánrèn), 陈建民 (Chén Jiànmín), 高名凯 (Gāo Míngkǎi), 黄伯荣 (Huáng Bóróng), 马建忠 (Mǎ Jiàn Zhōng), 曹逢甫 (Cáo Féngfǔ), 范晓 (Fàn Xiǎo), 王力 (Wáng Lì), 朱德熙 (Zhū Déxī), 金兆梓 (Jīn

² Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – T.: Fan va texnologiya, 2007. – 256 b.; Nasirova S.A. Hozirgi zamon xitoy tili diplomatik terminlarining leksik-semantik va struktur tahlili. Filol.fan.nomz. diss. avtoref. – Toshkent, 2008. – 148 b.; Nasirova S.A. Hozirgi xitoy tili ijtimoiy-siyosiy terminologiyasi. Filol.fan.dok. (DSc)... diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – 70 b.; Nasirova S.A. Hozirgi xitoy tilida reduplikatsiya: Filol. fan. nomz. ... diss. – T., 2009. – 154 b.; Hashimova S. Amaliy xitoy tili. – T.: Navro‘z, 2017. – 184 b.; Hashimova S. Xitoy tili grammatikasi. – T.: Extremum-Press, 2017. –176 b.; Hashimova S., Nosirova S. Xitoy tili grammatikasi. – T.: Jahon Print, 2012. – 148 b.; Hasanova F. Xitoy – bayxua tili. – T.: Universitet, 2021. – 138 b.; U.X.Mavlyanova. Xitoy filologiyasiga kirish. –T.: Universitet, 2013. – 124 b.; Mustafayeva S.T. Xitoy tili tilshunoslik terminlari tizimining shakllanishi va taraqqiyoti: Monografiya. – T.: Sharq, 2016. – 195 b.; Karimov A.A. Xitoy tilida inkor. – T.: Fan va texnologiya, 2020. – 95 b.; Sultanova L.A. Xitoy tili leksikologiyasi. – T.: Universitet, 2015. – 171 b.

Zhàozì), 徐烈炯 (Xú Liè Jiǒng), 胡明扬 (Hú Míng Yáng), 胡裕树 (Hú Yùshù), 李佐丰 (Lǐ Zuǒ Fēng), 唐钰明 (Táng Yù míng), 石毓智 (SHÍ Yùzhì), 李讷 (Lǐ Nè), 张伯江 (Zhāng Bójiāng), 方梅 (Fāng Méi), 肖娅曼 (Xiào Yà Màn), 曾骞 (Céng Qiān), 杨艳 (Yáng Yàn), 郑蔓威 (Zhèng Mǎn Wēi), 王秋妹 (Wáng Qiūmèi), 尹丹 (Yǐn Dān), 杨晶淑 (Yáng Jīngshū), 邹韶华 (Zōu SHáo Huá), 胡诗晨 (Hú Shī Chén)³ kabi xitoylik olimlarning ishlarida uchratish mumkin.

Rus olimlaridan V.I.Gorelov, O.M.Gotlib, I.S.Gurevich, A.A.Dragunov, T.V.Ivchenko, T.P.Zadoenko, D.A.Karpeka, A.F.Kondrashevskiy, M.V.Rumyanseva, M.G.Frolova, V.A.Kurdyumov, V.M.Solnsev, N.V.Solnseva, S.YE.Yaxontov, V.F.Shichko⁴ va boshqalarning ishlarida 是 shì elementining

³ Син Фуи, Грамматика китайского языка, – СПб.: Санкт-Петербургский государственный университет, 2019. – 765 с.; 朱晓星 “Грамматика китайского языка”. – М.: Международная издательская компания “Шанс”, 2019. – 267 с.; 黑维强. 绥德方言调查研究. 北京: 北京师范大学出版社, 2016. – 646 页; 刘丹青. 语法调查研究手册. 上海: 上海教育出版社, 2008. – 635 页; 吕叔湘. 汉语语法分析问题. 北京: 商务印馆出版, 1979. – 96 页; 吕叔湘. 现代汉语八百词. 北京: 商务印馆出版 1980. – 760 页; 吕叔湘. 近代汉语指代词. 上海: 学林出版社, 1985. – 437 页; 赵元任. A Grammar of Spoken Chinese. 北京: 商务印馆出版, 2017. – 380 页; 陈建民. 现代汉语句型论. 北京: 语文出版社, 1986. – 235 页; 高名凯. 汉语语法论. 北京: 商务印书馆, 1986. – 365 页; 黄伯荣. 廖序东. 现代汉语. 北京: 商务印书馆, 1998. – 337 页; 马建忠. 马氏文通. 北京: 商务印馆出版, 2017. 第 1-7 页; 曹逢甫. 主题在汉语中的功能研究. 北京: 语文出版, 1995. – 134 页; 范晓. 三个平面的语法观. 北京: 北京语言大学出版社, 1996. – 522 页; 王力. 中国现代语法. 北京: 商务印书馆, 2000. – 423 页; 王力. 王力文集. 济南: 山东教育出版社. 第一卷. 1984. – 515 页; 朱德熙. 语法讲义. 北京: 商务印馆出版, 1982. – 185 页; 金兆梓. 国文法之研究. 北京: 商务印书馆, 1922. – 88 页; 徐烈炯. 刘丹青. 话题的结构与功能. 上海: 上海教育出版社, 1998. – 352 页; 胡明扬. 北京话初探. 北京: 商务印书馆, 1987. – 182 页; 胡裕树. 现代汉语(重订本). 上海: 上海教育出版社, 2004. – 561 页; 胡裕树. 范晓. 动词研究. 开封: 河南大学出版社, 1995. – 142 页; 胡裕树. 现代汉语-使用说明. 上海: 上海教育出版社, 1999. – 222 页; 李佐丰. 古代汉语语法学. 北京: 商务印书馆, 2004. – 550 页; 李佐丰. 上古语法研究. 北京: 商务印书馆, 2004. – 236 页; 唐钰明. 著名中年语言学家. 资源集. 安徽: 教育出版, 2002. – 310 页; 石毓智, 李讷. 汉语语法化的历程. 北京: 北京大学出版社, 2001. – 414 页; 张伯江, 方梅. 汉语功能语法研究. 南昌: 江西教育出版社, 1999. – 261 页; 肖娅曼. 汉语系词“是”的来源与成因研究. 博士学位论文. 2003. – 287 页; 曾骞. 现代汉语系词“是”与几个相关问题. 博士学位论文. 2013. – 123 页; 杨艳. 现代汉语“是”字结构与语用量研究. 博士学位论文. 2004. – 125 页; 王秋妹. 汉语儿童“是”字结构的发展. 硕士学位论文. 2013. – 42 页; 尹丹. 现代汉语普通话中话题标记“是”的研究. 硕士学位论文. 2017. – 37 页; 杨晶淑. 与“是”字相关的句式的研究与教学 – 从中韩对比与偏误分析入手. 硕士学位论文. 2007. – 52 页; 邹韶华. 现代汉语“是”字句. 学位论文. 2001. – 54 页; 胡诗晨. “是”字句的句法义功能及教学设计研究. 硕士学位论文. 2020. – 119 页.

⁴ Горелов В.И. Грамматика китайского языка. – М.: Просвещение, 1982. – 278 с.; Горелов В.И. Лексикология китайского языка. – М.: Просвещение, 1984. – 216 с.; Горелов В.И. Теоретическая грамматика китайского языка – М.: Просвещение, 1989. – 318 с.; Готлиб О.М. Практическая грамматика современного китайского языка. – М.: Восточная книга, 2012. – 287 с.; Гуревич И.С. Историческая Петербург: Восточный экспресс, 2017. – 385 с.; Карпека Д.А. Сравнительная грамматика классического китайского языка вэньянь и современного литературного китайского языка путунгхуа. – Петербург: Восточный экспресс, 2020. – 988 с.; Карпека Д.А. Синтаксис китайского языка. Санкт-Петербург: «Восточный экспресс», 2019. – 504 с.; Кондрашевский А.Ф., Румянцева М.В., Фролова М.Г. Практический курс китайского языка. – М.: Восток-Запад, 2007. – 384 с.; Курдюмов В.А. Курс китайского языка. Теоретическая грамматика. – М.: Цитадель-Трейд; Лада, 2005. – 573 с.; Солнцев В.М., Солнцева Н.В. Теоретическая грамматика современного китайского языка. Проблемы морфологии. – М.: Военный институт, 1978. – 152 с; Солнцев В.М. Очерки по современному китайскому языку. – М., 1957. – 250 с.; Яхонтов С.Е. Категория глагола в китайском языке. – Ленинград: ЛГУ, 1957. – 181 с.; Щичко В.Ф. Практическая грамматика современного китайского языка. – М.: Издательство ВКН, 2016. – 208 с.; Гуревич И.С. Историческая грамматика китайского языка: язык прозы на байхуа периода Сун-Юань (*minhua*). – СПб.: Петербургское Востоковедение, 2008. – 224 с.; Драгунов А.А. Исследования по грамматике современного китайского языка. Т.1. Части речи. – М.: АН СССР, 1952. – 231 с.; Драгунов А.А. Предисловие // Ван Ляо И. Основы китайской грамматики. – М., 1954. – 262 с.; Драгунов А. А. Грамматическая система современного китайского разговорного языка. – Л.: Изд-во Ленингр. 1962. – 270 с.; Ивченко Т.В. Китайский Язык. Полная грамматика в схемах и таблицах. – М.: Издательство «АСТ», 2020.; Ивченко Т. В., Янчинов С. Х. Начальный курс разговорного китайского языка. – М.: Восток-Запад, 2007. – 366 с.; Задоевко Т.П., Хуан Шуин. Основы китайского языка. – М.: Наука,

paydo bo'lishi va sintaktik xususiyatlari haqida ba'zi qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

Ammo ushbu birlikning funksional-semantik mohiyati, uning til tizimida kechgan o'zgarishlar natijasida yangicha maqom kasb etishi, nutqiy tuzilmalar derivatsiyasida bajaradigan vazifalari hamda o'zbek tilidagi vazifaviy muqobillari tadqiq qilinmagan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Sharq mamlakatlari tillarini o'rganish va tilshunoslikning nazariy masalalari" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi zamonaviy xitoy tilidagi 是 shì elementli hosilalarning shakllanish mexanizmlarini tahlil qilish, ularning funksional-semantik xususiyatlarini hamda o'zbek tilidagi vazifaviy muqobillarini belgilashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

xitoy tili tizimidagi 是 shì unsurining grammatikalashuv bosqichlarini o'rganish va uning lingvistik maqomini belgilash;

是 shì elementining leksik-semantik va sintaktik mohiyati uning nutqiy tuzilmalar tarkibida faollashuvi bilan bog'liqligini isbotlash;

ushbu elementning bog'lama konstruksiyasida bajaradigan vazifasini aniqlash usulini ishlab chiqish;

是 shì bog'lamasining gap va matn derivatsiyasidagi ishtiroki ko'lamini belgilash hamda uning o'zbek tilidagi vazifaviy muqobillari qatorini aniqlash.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida 是 shì elementli hosilalar va uning o'zbek tilidagi muqobillari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini xitoy tilidagi 是 shì elementini semantik va funksional jihatdan tavsiflash va tasniflash mezonlari, derivatsion belgilari hamda o'zbek tilidagi vazifaviy muqobillashuv masalasi tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda semantik, komponent tahlil, analiz, sintez, tavsiflash, sistem-struktur, funksional tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

xitoy tili tizimidagi 是 shì unsurining grammatikalashuv bochqichlari to'liq ma'noli so'zdan (ravish) yordamchi element sari kechganligi aniqlanib, hozirgi paytda bog'lama ko'rinishidagi lingvistik maqomga egaligi dalillangan;

是 shì elementining leksik-semantik va sintaktik mohiyati til tizimining diaxron xususiyati sababli uning nutqiy tuzilmalar tarkibida faollashuvi bilan bog'liqligi isbotlangan;

ushbu elementning bog'lama konstruksiyasida bajaradigan sintaktik aloqalarni shakllantiruvchi vazifasini aniqlashning semantik va grammatik asoslari belgilangan;

1986. – 720 с.; Карпека Д.А. Глагол и грамматические категории предикатов в современном китайском языке. – Петербург: Восточный экспресс, 2017. – 385 с.

是 shì bog‘lamasining gap va matn derivatsiyasidagi ishtiroki ko‘lamini belgilanib, uning bog‘lama, bog‘lovchi, olmosh kabi o‘zbekcha vazifaviy muqobillari qatori aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

是 shì elementli hosilalarning funksional-semantik xususiyatlari belgilandi hamda ularning ma’no ko‘lami gap va matnlardagi misollar asosida dalillangan;

xitoy tilidagi 是 shì elementli hosilalarning o‘zbek tilidagi muqobillari xitoy tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan matnlar asosida aniqlanib, ularning funksional-semantik xususiyatlari asoslab berilgan;

chiqarilgan xulosalar asosida xitoy tilida elektron resurslar, bosma darslik uchun manbalar va nazariy hamda amaliy materiallar tayyorlanishi belgilangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda foydalanilgan tadqiqotlar asosida fundamental ilmiy va maxsus adabiyotlarga tayanilgan holda tanlangan tadqiqot usullari, ilmiy tadqiqot natijalarining dissertatsiya nazariy konsepsiyasiga mos kelishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, chiqarilgan nazariy xulosalar hozirgi kunda xitoy tilida keng qo‘llaniladigan 是 shì elementli hosilalarning tasnifi, ularni farqlash mezonlari masalalariga oid ilmiy ma’lumotlarni kengaytiradi va bu boradagi ilmiy xulosalarni takomillashtirishga imkon yaratadi hamda mazkur xulosalar 是 shì elementli hosilalarning gapda qo‘llanishi va ularning grammatikalashuv masalalarini yanada chuqurroq o‘rganish uchun muhim ilmiy-nazariy ma’lumotlar beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati undan umumiy tilshunoslik, xitoy tili nazariy grammatikasi, xitoy tili morfologiyasi kabi fanlaridan ma’ruza matnlari, darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. hamda tadqiqot natijalaridan oliy va o‘rta ta’limda xitoy tilini o‘qitish jarayonida foydalanish yuqori samara beradi hamda lug‘atlar tuzishda 是 shì elementining tarjima variantlarini aniq belgilashda amaliy material bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xitoy tilidagi “是 shì” elementli hosilalarning funksional-semantik xususiyatlari va o‘zbek tilidagi muqobillari yuzasidan olingan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

xitoy tili tizimidagi 是 shì unsurining grammatikalashuv bochqichlari to‘liq ma’noli so‘zdan (ravish) yordamchi element sari kechganligi aniqlanib, hozirgi paytda bog‘lama ko‘rinishidagi lingvistik maqomga egaligi haqidagi tahlil natijalari Yevropa Ittifoqining Erasmus+dasturi 58545-EPP-1-2017-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP CLASS: “Computational linguistics at Central Asian universities” loyihasi doirasida foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universitetining 2024-yil 21-oktabrdagi 04/11-6859-son ma’lumotnomasi). Natijada olingan tahlil va xulosalardan badiiy matnlarni xitoy tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish amaliyoti takomillashib, magistratura talabalari uchun tashkil etilgan onlayn kurslarni tashkillashtirishda manba bo‘lib xizmat qildi.

是 shì elementining leksik-semantik va sintaktik mohiyati til tizimining diaxron mohiyati sababli uning nutqiy tuzilmalar tarkibida faollashuvi bilan bog‘liqligi haqidagi natijalar Yevropa ittifoq tomonidan Erasmus+dasturining 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS+CBNE IMEP: O‘zbekiston Oliy ta’lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish nomli loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 2-oktabrdagi 930/02-son ma’lumotnomasi). Natijada, dissertatsiya materiallari tilshunoslik va tarjimashunoslik kabi fanlarning o‘qitilishida hamda mazkur amaliy loyiha bo‘yicha elektron resurslar, bosma darslik uchun manbalar va nazariy hamda amaliy materiallar tayyorlanayotganida muhim manba bo‘lib xizmat qildi;

是 shì elementining bog‘lama konstruksiyasida bajaradigan sintaktik aloqalarni shakllantiruvchi vazifasini aniqlashning semantik va grammatik asoslari xususida erishilgan natijalar Yevropa ittifoqining Erasmus+dasturi 58545-EPP-1-2017-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP CLASS: “Computational linguistics at Central Asian universities” loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 2-oktabrdagi 932/02-son ma’lumotnomasi). Natijada mazkur tahlillar orqali talabalarning kognitiv tafakkur etishi, aql-zakovati, mulohaza yuritish qobiliyatlari rivojlanishi aniqlandi;

是 shì bog‘lamasining gap va matn derivatsiyasidagi ishtiroki ko‘lamini belgilanib, uning bog‘lama, bog‘lovchi, olmosh kabi o‘zbekcha vazifaviy muqobillari qatori ifodalagan ma’nolar bo‘yicha taklif va tavsiyalardan Samarqand viloyati teleradiokompaniyasida 2024-yil 10-oktabrdagi kuni efirga uzatilgan “Assalom Samarqand!” ko‘rsatuvining navbatdagi sonining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand Teleradiokompaniyasining 2024-yil 30-oktabrdagi 01-07/344-son ma’lumotnomasi). Natijada mazkur dissertatsiyada ilgari surilgan ilmiy ommabop ahamiyatga ega tavsiyalaridan keyingi ko‘rsatuvlarda ham foydalanish ko‘zda tutilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot ishining natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 14 ta ilmiy maqola nashr qilingan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, 2 ta xorijiy ilmiy jurnalda, 4 ta xorijiy konferensiya to‘plamlarida va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlari to‘plamlarida e’lon qilingan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta asosiy bob, boblar bo‘yicha xulosalar, umumiy xulosalar, foydalanilgan nazariy va badiiy adabiyotlar hamda internetdan olingan manbalar ro‘yxati, ishda foydalanilgan shartli belgilar va qisqartmalar izohidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 156 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish. Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Ushbu tadqiqotda 是 shì elementining nutqiy tuzilmalar tarkibida bajaradigan vazifalari va ma'noviy xususiyatlarini sinxron va diaxron nuqtai-nazardan o'rganildi. Tahlilga tortilayotgan misollar turli matnlardan tanlab olingan. Misollar tanlovida biz asosan Pekin universitetida tuzilgan Xitoy tili korpusiga (汉语语料库)⁵ murojaat qilishni ma'qul topdik.

Korpus tahlili tadqiq jarayonida boshqa manbalarga murojaat qilishni inkor etmaydi, albatta. Shuni e'tiborga olgan holda ayrim holatlarda misollarni badiiy adabiyotlar, lug'atlardan ham tanlashga harakat qilindi. Bundan tashqari, ba'zi holatlarda xitoy tili sohiblari bo'lgan informantlarga ham murojaat qildik.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**是 shì elementining kelib chiqishi va tavsifi**” deb nomlanadi. Ushbu bobda 是 shì elementining tarixiy rivoji va bog'lama maqomida grammatikalashuvi bilan bog'liq masalalar muhokama qilingan. 是 shì bog'lamasini milodiy 500-yillar atrofida shakllangan va keng tarqala boshlagan. Tilshunoslar bog'lamaning rivojini aniqlovchi uch tamoyilni keltirib o'tgan: 1) u ravishdan kelib chiqqan; 2) qadimgi xitoy tilida bog'lovchi ma'nosini ifodalovchi yordamchi so'zdan kelib chiqqan (tarkibida 也 yě yordamchi so'zi bo'lgan jumlaning qisqarishi), 3) 是 shì bog'lovchisi⁶ qadimgi xitoy tilidagi neytral bo'lishsizlik 不 bù orqali inkor etilgan nominal bo'lishsizlik 非 fēi ning qisqarishi natijasida paydo bo'lgan. Mazkur fikr keng miqyosda tan olinadi hamda aksariyat olimlar 是 shì bog'lamasining paydo bo'lishi O'rta Xitoy tili davri (200 milodiy - 1000)ga xos ekanligiga urg'u berishadi.

是 shì bog'lamasining kelib chiqishiga doir fikrlar hozirgacha qizg'in bahslar mavzusi bo'lib kelmoqda. Xitoylik olimlar tomonidan keng muhokamada bo'lib kelayotgan fikrlarning uchtasiga to'xtalib o'tamiz:

是 shì bog'lamasini qadimgi xitoy tilidagi ko'rsatish olmoshidan kelib chiqqanligi haqidagi qarash eng keng tarqalgan. Bu fikr Vang tomonidan ilgari surilgan va Feng, Pulleyblank, Shi va Li va boshqalar tomonidan qo'llab-quvvatlangan⁷. Vangning ta'kidlashicha, qadimgi xitoy tilida ega unga ishora

⁵ 汉语语料库 (http://ccl.pku.edu.cn:8080/ccl_corpus/search)

⁶ 王力. 中国文法中的系词 // 汉语史论文集. 北京: 商务印书馆. 1937. 212-276 页.

⁷ 王力. 中国文法中的系词 // 汉语史论文集. 北京: 商务印书馆. 1937. 212-276 页.; 石毓智, 李讷. 汉语语法化的历程. 北京: 北京大学出版社. 2001.. Feng, Shengli. The copula in classical Chinese declarative judgment sentences // Journal of Chinese Linguistics, 21. 1993. - P 277-311.; Pulleyblank, Edwin G. Outline of Classical Chinese Grammar. - Vancouver: UBC Press, 1995. - P. 56; 石毓智, 李讷. 汉语语法化的历程. 北京: 北京大学出版社, 2001. 414 页.

qiluvchi anafora vazifasini bajarayotgan 是 shì bog‘lamasi ko‘rsatish olmoshi bilan qo‘llanilgan. 是 shì bog‘lamasi aksariyat hollarda ega va kesimni bog‘lash vazifasini bajaruvchi o‘rinda qo‘llanilib, o‘zining bog‘lamaga aylanish jarayonini boshlab bergan bog‘lama ko‘rsatkichi sifatida ishtirok etgan. Feng 是 shì bog‘lamasini ilk qadimiy xitoy davridagi izohlovchi izohlanmish konstruksiyasidagi ko‘rsatish olmoshi birligining shaklidan kelib chiqqan, deb hisoblaydi va ilk qadimgi xitoy tilidagi izohlovchi – izohlanmish konstruksiyasida ular o‘rtasida pauza kerakligini aytib o‘tadi⁸.

Fengning taxminicha, 是 shì ko‘rsatish olmoshining 是 shì bog‘lamasiga aylanish sababi undagi ko‘rsatish olmoshi sifatida bajaradigan vazifaning hamda talaffuz jarayonida uni ifodalovchi pauzaning qo‘llanilishiga ehtiyojning yo‘qolishidir. Bizningcha, klassik xitoy tilida pauza ifodalanishi bilan bog‘liq muammo bu o‘rinda yuzaga chiqib qolgan, boisi matnda aynan 兮 xī belgilari kabi iyerogliflarda talaffuz me‘yorlari aks ettirilmagan. Pauzaga bo‘lgan ehtiyojning yo‘qolishi ko‘rsatish olmoshidagi urg‘u ohangining susayishiga olib kelgan hamda zaruratning bor yo‘qligiga qaramay ko‘rsatish olmoshining fe‘lga aylanishiga sabab bo‘lgan.

Shi hamda Li grammatikalizatsiya nazariyasiga asoslangan holda, shì bog‘lamasi ko‘rsatish olmoshining qadimgi xitoy tilida doimiy o‘timli fe‘llar yasaliş modeli asosida analogik tartibda kelib chiqqanligi haqidagi fikrni ilgari suradi⁹. Ularning ta’kidlashicha, tilning mutlaq tarkibiy mazmuni ma’lum davrga kelib analogik jarayon orqali grammatikalizatsiyaga uchraydi. Qadimgi xitoy tilida allaqachon so‘zlarning odatiy tartibi shakllangan bo‘lib, 是 shì bog‘lamasining ega va ot kesim o‘rtasida qo‘llanilish o‘rni morfosintaktik xarakterdagi kontekst hisoblanadi va unda o‘timli fe‘l nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda 是 shì bog‘lamasi qolipga solinadi. Shu bilan birga, zamonaviy xitoy tilidagi shì bog‘lamasi sintaktik jihatdan muhim bo‘lgan vaziyatlarda odatiy o‘timli fe‘llardan farq qilishi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Vang nazariyasiga qo‘shilmaslikning izohi sifatida Hong 是 shì bog‘lamasining fikr tasdig‘i uchun qo‘llaniluvchi 是 shì sifatidan kelib chiqqanligi haqidagi nuqtai nazarni ilgari sursa¹⁰, yana bir tadqiqotchi Feng esa 是 shì bog‘lamasini eski xitoy tilidagi “haqqoniy” va “zaruriy” ma’nolarini ifodalovchi 是 shì sifatidan kelib chiqqan deya mulohaza bildiradi¹¹. 是 shì sifatining tasdiqlovchi ma’noni ifodalashi semantik jihatdan bog‘lamaga aloqador va u ayni shu jihatdan asosiy undovchi vazifasini bajaryapti. Ammo, ushbu fikr 是 shì bog‘lamasining sintaktik o‘zgarish jarayonini hamda “*mavjud bo‘lmoq*” yoki “*haqiqiy*” so‘zlarining bog‘lovchi ma’no beruvchi birlikka o‘zgarganini ham izohlab bermaydi.

⁸ 馮勝利. The copula in classical Chinese declarative judgment sentences // Journal of Chinese Linguistics 21. 1993. – P. 277-311.

⁹ 石毓智, 李讷. 汉语语法化的历程. 北京: 北京大学出版社. 2001. – 页 254.

¹⁰ 洪诚. 论南北朝以前汉语中的系词. “语言研究” 第 2 期. 1958. – P 1-22.

¹¹ 陈建民. 现代汉语句型论. 北京: 语文出版社, 1986. – 235 页.

是 shì bog‘lamasining kelib chiqishiga doir uchinchi mulohaza Yen tomonidan bildirgan. Uningcha 是 shì elementining bog‘lama sifatida qo‘llanilishi tasdiq morfema sifatidagi vazifasidan kelib chiqqan¹². 非 fēi “*noto ‘g ‘ri*” va 是 shì bog‘lamasi (“*to ‘g ‘ri*”) so‘zlarining zid ma‘noni anglatishi tufayli bu narsa inkor gaplarda bo‘lishsizlik ma‘nosini ifodalovchi 非 fēi ga qarama – qarshi o‘laroq yuzaga kelgan. Yenning fikriga ko‘ra, 非 fēi keyinchalik 不是 bùshì bilan almashtirilgan. Ammo, bu fikrni isbotlovchi aniq dalillar mavjud emas. Eski xitoy tilida inkor fe’llar fe’lli birikma va kesimlar tarkibida 不知 bù zhī “*ma ‘lum emas*”, 不为 bù wéi “*qilmaslik*” dagi kabi qo‘llanilgan. Shuning uchun 不 bù ning 是 shì bog‘lamasidan oldin yuzaga kelishi, u kesimning tarkibiy qismi bo‘lganligini isbotlaydi.

是 shì ning grammatik kategoriyasi doirasida ko‘plab tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Xitoy tilshunosi Ma 是 shì ni ko‘rsatishni yoki otli birikmani ifodalovchi anafirik olmosh sifatida tahlil qilgan¹³. Dastlab Vang 系词 xì cí zamonaviy xitoy tilida keng tarqalgan 是 shì o‘zi bog‘lovchi fe’l deb ta’kidlagan¹⁴. Vang 是 shì bog‘lamasi ingliz tilidagi “to be” fe’liga o‘xshab leksik ma’noga ega bo‘lmagan yolg‘iz o‘zi qo‘llanilganda hech qanday ma‘no anglatmaydigan birlik degan fikrni bildiradi. U 是 shì bog‘lamasini 虚词 xū cí “*bo ‘sh so ‘z*” ideb hisoblab, undan keyin qo‘llanuvchi o‘zining har qanday aniqlovchisi bilan bir butunlikdagi iborani tashkil qiladi, natijada 是 shì bog‘lamasi ot kesimni ifodalovchi har qanday yordamchi so‘zli birikmani hosil qiladi, deb hisoblaydi. Shuningdek, u aytib o‘tadiki, 是 shì bog‘lamasi semantik ma‘no ifodalash imkoniyati yo‘q birlik bo‘lishiga qaramasdan, uning ikki xil ajratilgan vazifasi mavjud: ularning birinchisi sabab ko‘rsatkichi, yana biri suhbatdosh ifoda qilgan mulohaza inkori yoki uning tasdig‘ini ifodalovchi xususiyatdir. Yuqoridagi vazifalar 是 shì bog‘lamasi baholovchi, pànduàn “*hukmni*” ifodalovchi va shuningdek bog‘langan gap hukm va tasdiqni ifodalashidan kelib chiqadigan faktlarga asoslangan¹⁵

Feng eski xitoy tilida sub’yekt va predikat o‘rtasida majburiy ravishda yuzaga keladigan ochiq pauza mavjudligini ta’kidlaydi¹⁶. Xuddi shunday, tema-sharh tuzilmasida tema jumla va sharh jumla o‘rtasida majburiy pauza paydo bo‘ldi. Aynan shuning uchun ham bo‘lak va qo‘shimchaning predmet va predikat o‘rtasida yoki tema-sharh tarkibidagi mavzuli gap bilan izoh gap o‘rtasida paydo bo‘lishi mumkin. Uning ta’kidlashicha, 是 shì ko‘rsatish olmoshining leksik kategoriyasini otdan fe’lga o‘zgartirib, 是 shì ko‘rsatish olmoshining ta’kidlovchi vazifasini pazuga ehtiyoj qolmaganligi sababli zaiflashgani va 是 shì

¹² 颜祥霖. 汉语系词“是”的来源 // Journal of Chinese Linguistics 14.2. 1986. – P. 227-241.

¹³ 马建忠. 马氏文通. 北京: 商务印馆出版, 2017. 第 1-7 页.

¹⁴ 王力. 中国语法中的系词 // 汉语史论文集. 北京: 商务印书馆. 1937. – 页 212-276.; 王力. 汉语史论文集. 北京: 科学出版社. 1958. – 页 212-276.

¹⁵ 王力. 王力文集. 济南: 山东教育出版社. 第一卷. 1984.

¹⁶ 冯春田. 看关系是的问题. 山东: 山东教育出版社. 1992.

qo‘shimchasining pauza bilan chalkashishiga sabab bo‘lganligi tufayli, 是 shì bog‘lama sifatida qayta shakllanib, pauza yo‘qolgan.

是 shì so‘zi 判断句 pànduàn jù, ya’ni hukm tuzilishidagi gaplarda uchraydi va so‘zlovchining ishonchi va hukmini ifodalovchi vosita sifatida qo‘llaniladi. 是 shì so‘zining juda sermahsulligi turli sintaktik-semantik kontekstlarda qo‘llana olishi bilan ahamiyat kasb etadi. Pekin Universitetining zamonaviy Xitoy tili korpusida (汉语语料库) 是 shì bog‘lamasi 的 de (strukturaviy yordamchi so‘z) va 一 yī “bir” so‘zlaridan keyin uchinchi o‘rinda eng ko‘p qo‘llaniluvchi so‘z sifatida qayd etilgan¹⁷. Zamonaviy xitoy tilidagi 是 shì bog‘lamasi: 1) “ma’qul”, “yaxshi” yoki “to’g’ri” ma’nosini anglatadi; 2) ko‘rsatish olmoshi; 3) modallik; 4) biriktiruvchi bog‘lovchi; 5) ta’kidni ta’minlovchisi; 6) qo‘shimcha kabi vazifalarni bajarib keladi.

是 shì bog‘lamasi ayrim jumlar tarkibida ko‘rsatish olmoshi vazifasini ham bajaradi.

Ayrim holatlarda 是 shì bog‘lamasi mavjudlikni bildiradi. Bunday gaplarda qo‘llangan 是 shì bog‘lamasi ko‘pincha zamonaviy xitoy tilidagi 有 yǒu “ega bo‘lmoq” fe’li bilan taqqoslanadi. Xitoy tilida mavjudlikni ifodalovchi muzkur fe’llar o‘rtasidagi farq xitoy tilshunosligida keng muhokama qilingan. Jinning ta’kidlashicha¹⁸, 有 yǒu bir joydagi bir nechta mavjudlikni ifodalaydi hamda ulardan biri 有 yǒu fe’lining to‘ldiruvchisi sifatida belgilanadi va shuning uchun 我家门前有条河 [wǒ jiā mén qián yǒu tiáo hé] – *Mening uyimning oldida daryo bor* gapida uyning oldida bir nechta narsalar borligi va ulardan biri daryo, ekanligi ta’kidlanmoqda. Bu yerda 是 shì bog‘lamasi ifodalayotgan modallik o‘sha joyda faqatgina bitta narsa mavjudligini tasvirlaydi. 是 shì bog‘lamasi ma’nosidagi borliqqa oidlikni faollashtirish orqali so‘zlovchi o‘sha makondagi boshqa mavjudlikni inkor qiladi va 是 shì bog‘lamasi to‘ldiruvchisigagina urg‘u beradi. Shuning uchun quyidagi misolda so‘zlovchi uchun uyining oldidagi yagona narsa daryodir: 我家门前是条河 [wǒ jiā mén qián shì tiáo hé] – *Mening uyimning oldida daryo bor* (o‘sha makondagi boshqa mavjudlikni inkor qiladi).

Biz tahlil qilayotgan lisoniy unsur bog‘lovchi fe’l vazifasini ham bajaradi, ya’ni quyida ko‘rib chiqiladigan misollarda 是 shì bog‘lamasi ega va kesim orasidagi aloqa, munosabatni shakllantiradi. Bunday munosabatlar voqelanishida turli xildagi nominal ma’nolar aks topadi: Jumladan, 她是我妹妹 [tā shì wǒ mèimei] – *U mening singlim* misolidagi 她是 tā shì va 我妹妹 wǒ mèimei komponentlari bir-biriga tengdir.

是 shì elementi ayrim vaziyatlarda ta’kid belgisi vazifasini bajarishi kuzatiladi. Ta’kid belgisi (focuse marker) deb odatda diqqat qaratilgan bo‘lakdan keyin keluvchi yordamchi so‘zga aytiladi¹⁹.

¹⁷ http://ccl.pku.edu.cn:8080/cll_corpus/search

¹⁸ Ji Lixin. “posi.you N” and “posi.shi N”, 语言教学和研究. 1995. 第3期:82-84.

¹⁹ Katharina Hartman nad Malte Zimmermann. Morphological Focus Marking in Guruntum. – Berlin.: Humboldt University, 2006. – 60 p.

Ta'kid belgisi deb shartli ravishda nomlanuvchi bu element urg'u olishi kerak bo'lgan gap bo'lagidan oldin keluvchi bog'lovchi bo'lib, unga e'tiborni kuchaytirib beradi. Huang, Teng, Fang, Dong kabi olimlarning ta'kidlashicha: 是 shì bog'lamasi 蛋糕是昨天做的 [dàngāo shí zuótiān zuò de] – *Tort kecha tayyorlangan edi* gapida 昨天 zuótiān – “kecha” va 我是去年来北京的 [wǒ shì qùnián lái Běijīng de] – *Men o'tgan yili Pekinga kelgan edim* gapida 去年 qùnián – “o'tgan yili” bog'lovchidan keyin qo'llanuvchi vaqt ifodalovchi iboralar hamda 我是去年来北京 [wǒ shì qùnián lái Běijīng] – *Men o'tgan yili Pekinga keldim* misolida ta'kidni kuchaytiruvchi sifatida qo'llaniladi²⁰

是 shì bog'lamasi gap boshlanishida qo'llanilib, gapning egasiga urg'u beradi (ta'kidlaydi); “yaxshi”, “axir”, “aynan”, “aniq”: 是谁告诉你? [shì shéi gàosù nǐ?] – *Sizga kim aytdi?*; 是我疏忽了, 请你原谅! [shì wǒ shūhūle, qǐng nǐ yuánliàng!] – *Men beparvolik qildim, meni kechiring!*

Xabar ma'nosiga ega jumalardagi 是 shì fe'li urg'usiz, ya'ni deyarli neytral ohangda talaffuz qilinadi.

是 shì bog'lamasi maxsus aksent bilan ajratilganda “*ha, haqiqatan, juda to'g'ri, haqiqatda*” ma'nosini bildiradi. Bunday talaffuz suhbatdosh taxminining to'g'riligini tasdiqlash uchun (masalan, biror savolga javob berishda) yoki suhbatdosh unga berilgan ma'lumotdan shubhalansa, shubhasini rad etish uchun ishlatiladi: 张老师是中国人 [Zhāng lǎoshī shì zhōngguó rén] – *O'qituvchi Chjan xitoylik/aslida xitoylik* (suhbatdoshi bunga shubha bildirmoqda).

Patten ma'lum tillarda ajratilgan bo'lakli qo'shma gaplar qo'shma gaplarning maxsus turkumiga tegishli ekanligini ta'kidlaydi, chunki ular tayyor yoki yasalgan aniq otli iboralar bilan umumiy cheklovchi, ammo havolasiz to'plamni o'z ichiga oluvchi nisbiy gap bo'lishi mumkin. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, ajratilgan bo'lakli gaplar qo'shma gaplar tarkibida namoyon bo'lib, ularda bog'lovchidan keyin qo'llanuvchi otli birikmaning izohlash imkoni cheklangan, ushbu birikma uchun alohida izoh sifatida qo'shma gapning ikkinchi qismi nisbiy gap shaklida keltiriladi. Bundan tashqari, qisqargan birikma nafaqat narsalarni, balki harakatlar va belgini ham ifodalab kelishi mumkin, shuning uchun bog'lovchidan keyingi gap bo'lagiga birikkan tegishli birliklar qo'shma gap qismlariaro ko'chib yurishi mumkin²¹.

Bog'lamadan keyingi birlik – bu so'zlovchi yoki tinglovchi taxmin qilingan g'oyani tasdiqlovchi mantiqiy urg'u olgan bo'lakdir. Masalan, 她是昨天去上海的 [tā shì zuótiān qù shànghǎi de] – *U Shanxayga kecha bordi* misolida qarama – qarshi nuqta 昨天 zuótiān “kecha” ravishdoshli payt birikmasi, kontekstdagi presuppozitsiya esa *U ma'lum bir vaqtda Shanxayga bordi*.

²⁰ James Huang. Logical Relations in Chinese and the Theory of Grammar. – New York: Garland publishing, 1998. – 435 p.; Shou-Hsin Teng. Remarks on cleft sentences in Chinese//Journal of Chinese linguistics: 7.1. 1979. – P.101-114.; 方梅. 汉语对比焦点的句法表现手段.中国语文.第4期.1995.; 董秀芳.“是”的进一步语法化: 由虚词到词内成分.当代语言学:6.1 2004. – P. 35-44.

²¹ Amanda Patten. Cleft Sentences, construction grammar and grammaticalization. – Edinburgh: Univeristy of Edinburgh, 2010. – P. 126-133.

Ba'zi olimlar, masalan, Teng, Zhu, Huanglarning fikricha, xitoy tilida bog'lama takrorlanib kelmaydi²², aksincha 这个是在家做的 [zhège shì zàijiā zuò de] – *Bu tayyorlangan joy uy edi* misoli tenglikni ifodalab keladi va shuning uchun ega va kesim o'z o'rnini o'zgartirishi mumkim. Ularning fikricha 这个是在家做的 [zhège shì zàijiā zuò de] – *Bu tayyorlangan joy uy edi* va 在家做的是这个 [zàijiā zuò de shì zhège] – *Uyda tayyorlangan* misollari bir xil teng ma'noga ega va ular soxta-bog'lamali gaplardir.

Bizningcha, bog'langan va soxta-bog'lamali gaplar teng emas, ular bir-birini takrorlamaydi. 这个是在家做的 [zhège shì zàijiā zuò de] – *Bu tayyorlangan joy uy edi* misoli zamonaviy xitoy tilida soxta – bog'lama mavjud bo'lgan 在家做的是这个 [zàijiā zuò de shì zhège] – *Uyda tayyorlangan bu* gapidan farq qiladi, chunki ular turli shakllarga ega va turli ma'nolarni bildiradi.

Xuangning ta'kidlashicha, xitoy tilida bog'lamalar shakllanishining eng oddiy usuli bu 是 shì bog'lamasini to'g'ridan – to'g'ri ta'kid vazifasida bo'lgan tarkibiy qismning oldiga qo'yishdir. Masalan, 小李是昨天打了小王 [Xiǎo lǐ shì zuótiān dǎle xiǎo wáng] – *Siaoli kecha Siaovangni urgan edi*; 小李昨天是打了小王 [Xiǎo lǐ zuótiān shì dǎle xiǎo wáng] – *Siaoli Siaowangni kecha urgan edi*; 是小李昨天打了小王 [shì xiǎo lǐ zuótiān dǎle xiǎo wáng] – *Kecha Siaovangni urgan Siaoli edi* kabi.

Agar 是 shì bog'lamasi ravish bo'lsa, yoki ravish o'rnida kelsa (masalan, inkor, modal, payt ravishlari) xitoy tilida fe'ldan oldin kelib, fe'l va uning to'ldiruvchisi o'rtasidan o'rin egallay olmaydi²³.

是 shì bog'lamasi (“*bo'lmoq*”) va uning sinonimi 在 zài “*-da bo'lish*” (joy) “*joylashmoq*” fe'li, shuningdek, aqliy faoliyat fe'llari bo'lgan 知道 zhīdao “*bilmoq*”, 认识 rènshi “*tanishmoq; bilmoq*” faqat inkor morfemasi bù bilan har qanday zamon va aspektual kontekstda ishlatiladi: 他不是中国人 [tā bù shì Zhōngguó rén] – *U xitoylik emas*; 我不知道他要来 [wǒ bù zhīdào tā yào lái] – *Men uning kelmoqchi ekanligini bilmasdim*; 他小时候不认识她 [tā xiǎoshíhou bù rènshi tā] – *U yoshligida uni tanimasdi*; 昨天我不在家 [zuótiān wǒ bù zài jiā] – *Kecha men uyda yo'q edim*.

Ko'pgina boshqa tillar singari, zamonaviy xitoy tilida ham bog'lama va bog'lovchi gaplar mavjud. Eng umumiy ma'noda bog'lama gap tarkibidagi ot va uning o'rnida qo'llana oluvchi infinitiv, gerundiy, nisbiy sifat va otlashgan sifatdash o'rtasidagi munosabat tasdig'ini qayd etish uchun kerak bo'ladi. Ayni o'rinda bir qator holatlarda xitoy tili o'zining temali gaplardan iborat bo'lishlilik xususiyatidan kelib chiqib, bog'lama ishtirokisiz ham ot-kesimli gaplar hosil qila olish imkoniga ega til hisoblanadi. Gap tarkibida ot va asliy sifatni, ot va harakat nomini ega-kesim munosabatiga kirishtirib kelishida bog'lamaga har doim ham

²² Shou-Hsin Teng. Remarks on cleft sentences in Chinese//Journal of Chinese linguistics: 7.1. 1979. – P.101-114.; Yao Zhu. The Focus-marking function of shi in mandarin Chinese. Phd dissertation. – Mankato: University of Minnesota. 1997. – P 89.; James Huang. Logical Relations in Chinese and the Theory of Grammar. – New York: Garland publishing, 1998.

²³ O'sha asar

ehtiyoj bo‘lavermaydi. Gap tuzilishi tarkibiga ko‘ra, bunday bog‘lamaga ehtiyoj bo‘lmagan gaplarda uning qo‘llanilishi gap bo‘lagiga quchliroq urg‘u berilishiga olib keladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**是 shì bog‘lamasining sintaktik – semantik mohiyati**” deb nomlanib, unda bog‘lamaning sintaktik-semantik mohiyati yoritilib, ushbu unurning nutqiy tuzilmalarda bajaradigan vazifasi hamda ma‘no xususiyatlari tahlil qilingan.

Aksariyat adabiyotlarda ega gap grammatik asosini belgilab beruvchi kategoriya, kesim esa argumentning gapdagi o‘rnini belgilaydigan leksik tushunchalar jamlanmasi deb e‘tirof etiladi. Funktsional yo‘nalishdagi tilshunoslikdagi odatiy ta‘rifga ko‘ra, gapning egasi “o‘sha gapdagi fe‘l bilan “bajarish” yoki “bo‘lish” munosabatiga ega bo‘lgan ibora”dir²⁴. Kesim – ega haqida aytilgan fikrni o‘z ichiga oladigan gapning bir bo‘lagidir. “Kesim” so‘zi “ega” funktsional atamasi bilan qarama-qarshi bo‘lgan funktsional atama bo‘lib, u odatda fe‘lli iboraning vazifasini anglatadi. Ayni paytda kesim har doim ham fe‘lli ibora bo‘lavermaydi. Bog‘langan qo‘shma gap nuqtai nazaridan, “kesim” atamasi an‘anaviy ravishda bog‘lama va undan keyin keluvchi iboradan iborat keng ma‘noga ega birikma yoki bog‘lamani istisno qiladigan tor ma‘noga ega bo‘lganligi uchun faqat bog‘lamadan keyin kelib, unga ishora qiluvchi iborani bildiradi.

Fe‘l bo‘lmagan kesimga bog‘lama vositasida o‘zlari asl holatida kesim hosil qila olmaydigan so‘z turkumlarini kiritilishi bu jarayonda 是 shì bog‘lamasi ahamiyatini alohida qayd etadi.

Harakat nomi, otlashgan sifat va boshqa so‘z turkumlari o‘z-o‘zidan ot-kesim hosil qila olmaydi. Buning uchun ushbu birliklar kesim yasovchi bog‘lama bilan birikishi kerak. Ayni paytda fe‘l kesim hosil qilinishida bog‘lama mutlaqo ishtirok etmasligini qayd etib o‘tish lozim.

Hengeveld bog‘lamani leksik ma‘noga ega bo‘lmagan, ma‘no tarkibi semantik jihatdan bo‘m-bo‘sh va kesimlikning ayrim belgilarinigina o‘zida aks ettira oluvchi birlik deb hisoblaydi²⁵.

Yuqorida eslatilgan ta‘riflar bog‘lamaning sintaktik funksiyalarini ochib beradi:

- a) bog‘lama ega va ot-kesim o‘rtasida bog‘lovchi vazifasini bajaradi;
- b) bog‘lama fe‘l bo‘lmagan kesimni o‘z ichiga olgan gapga zamon va boshqa flektiv xususiyatlarni biriktirish uchun sintaktik “bosh bo‘lak” vazifasini bajaradi;
- c) bog‘lama o‘z-o‘zidan kesim hosil qilmaydigan leksemalarga qo‘shiladigan predikativlikni belgilovchi vazifani bajaradi.

Ushbu fikrlar tahlili quyidagi xulosalarga olib keladi:

Birinchidan, fe‘l kategoriyasi belgilariga ega bo‘lgan kesim hech qachon bog‘lama bilan birika olmaydi.

Ikkinchidan, barcha bog‘lamalar fe‘lga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak.

²⁴ C.–T. James Huang. Logical Relations in Chinese and the Theory of Grammar. – New York: Garland publishing, 1998. – P. 256-268.

²⁵ Rob Hengeveld. Dynamic biogeography. – New York: – Cambridge University Press, 1992. – 264 p.

Biroq, xitoy tiliga mansub 是 shì bog‘lamasi tahlilida uning yuqoridagi ikki talqinning hech biriga mosligi yo‘qligi oydinlashadi.

Xitoy tilidagi 是 shì bog‘lamasi – o‘zgarmas tuslanmaydigan fe‘l bo‘lib, ma‘lum leksemalar bilan birikkan holda qo‘llaniladi hamda ular birgalikda bog‘langan gapning kesimini hosil qiladi. Semantik jihatdan u bog‘langan gapning ma‘nosini ham ifodalay oladi.

是 shì – “bo‘lmoq” fe‘lining xitoy tilida qo‘llanilish holati turli davrlarda turlicha bo‘lgan. Qadimgi xitoy tilida mavjud bo‘lgan 是 shì ning ayrim vazifalari zamonaviy xitoy tilida yo‘q bo‘lib ketgan, yoki aksincha, zamonaviy xitoy tilida paydo bo‘lgan yangi vazifalari qadimgi xitoy tilida uchramaydi. Zamonaviy xitoy tilining yozma va og‘zaki shaklida 是 shì unsurining ishlatilish ko‘lami ancha keng bo‘lib, unga oid qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Biz avval 是 shì unsurining turli so‘z turkumlari vazifasida qo‘llanish holatini tadqiq qilishga harakat qilamiz.

1. “是” sifat so‘z turkumi vazifasida.
2. “是” olmosh so‘z turkumi vazifasida.
3. “是” ot so‘z turkumi vazifasida.
4. 是 shì gapda bog‘lovchi vazifasida.
5. 是 shì gapda ravish vazifasida ham keladi.
6. 是 shì ning fe‘l vazifasida kelishi.

7. 是 shì yordamchi so‘z vazifasida kelib, va bunda to‘ldiruvchini kesimdan oldin kelishiga zamin yaratadi.

Ko‘pgina tilshunoslarning fikriga ko‘ra, garchi bog‘lama o‘zi semantik jihatdan bo‘sh fe‘l bo‘lsa-da, uning yordamida yasaluvchi gaplar turli ma‘no bog‘lanishini ifodalaydi. Blom va Daalder dunyo tillaridagi bog‘langan gaplar ega va kesimda ifodalangan ob‘yektiv ma‘lumotlar o‘rtasidagi munosabatlarga asoslangan holda ikkita semantik sinfga bo‘linishini qayd qilishadi²⁶, bunday bog‘lanish “predikatsion” (darak beruvchi) va “spesifikatsion” (izohlovchi) deb nomlanadi²⁷.

Xitoy tilidagi bog‘langan gaplarni spetsifikatsion va predikatsion semantik toifaga ajratish mumkin; quyidagi keltirilgan gaplardagi misollar hammasi spetsifikatsion munosabatdagi bog‘langan gaplar turiga tegishli hisoblanadi. Mazkur gaplar bog‘langan gapning spetsifikatsion turiga mansub bo‘lib, unda ega va ot-kesim bir turkumga mansublik munosabatini hosil qiladi: 我做的是这个 [wǒ zuò de shì zhège] – *Mening bajarganim mana shudir*; 拜登是美国总统 [bài dēng shì měiguó zǒngtǒng] – *Bayden AQSH prezidentidir*.

Konstruksion grammatika doirasida Kroft quyidagi fikrlarni bildiradi: bog‘lama konstruksiyasi egani nominal ega turkumiga mansub yoki nominal kesim

²⁶ Alied Blom and Daalder Saskia. Syntaktische theorie en Taalbeschrijving. – Muiderberg: Coutinho, 1977. – 152 p.

²⁷ Rennat Declerck. Studies on copula sentences, clefts and pseudo-clefts. – Brussels: Leuven University press, 1988. – P. 211.

xususiyatiga ega deb tasniflovchi tasdiqni yaratish maqomiga ega²⁸. Biroq, bog'lama fe'lining o'zi minimal semantik tarkibga ega bo'lib, eganing mazmunini ko'rsatib keluvchi kategoriyaga faqat kesimlik vazifasini qo'shadi²⁹.

是 shì bog'lamasining semantik xususiyatlari quyidagi vazifalarda namoyon bo'ladi:

1. Bog'lama gap yasashda bosh bog'lovchi vazifasini bajarib, “bu”; “mavjud bo'lmoq”; “mohiyat”; “bo'lmoq” ma'nolariga ega bo'ladi.

2. Ikkita bir xil so'zni (ot, sifat, fe'l) bog'layotgan 是 shì urg'u ostida talaffuz qilinadi va gapning keyingi qismi oldingisi bilan qarama-qarshi bog'lanishda ekanligini ta'kidlaydi: 诗是好诗, 就是长了 [shī shì hǎo shī, jiùshì zhǎngle] – *She'r yaxshi she'r, lekin u juda uzun*; 东西旧是旧, 可是还能用 [dōngxī jiù shì jiù, kěshì hái néng yòng] – *Eski narsalar eski, ammo ulardan foydalanish mumkin*.

Qadimgi xitoy tilida hukm, qoida tariqasida, bog'lamaning yordamisiz shakllangan; hukm predikatini bildiruvchi predikat to'g'ridan-to'g'ri predmetga bog'langan, lekin gap oxirida 也 yě morfemasi qo'yilgan: 伯夷叔齐, 孤竹君之二子也 [bóyí shū qí, gū zhújūn zhī èrzi yě] – *Bo-i va Shu-qi Guchju shahzodasining ikki o'g'li edi*; 陈良, 楚产也 [chén liáng, chǔ chǎn yě] – *Ven Liang Chu shtatidan edi*; 诗书, 义之府也; 礼乐, 德之则也 [shī shū, yì zhī fǔ yě; lǐ yuè, dé zhī zé yě] – *She'r kitobi va tarix kitobi*” – *burch xazinasi; Marosimlar kitobi va musiqa kitobi ezgulik namunasi*dir.

是...的 shì...de birikmasi Venyanda mavjud emas, buning boisi, ehtimol Venyaning hikoyaviy tabiati, yozma madaniyat tili, “ilmiy kitobiy” xarakterga egaligi va asosan faktlarni ko'proq yoki kamroq xolis taqdim etish uchun ishlatilishida bo'lishi mumkin. Lekin ushbu unsur so'zlashuv tilida, jumladan, Bayhua so'zlashuv tilida, allaqachon, XI-XII asrlarda paydo bo'la boshlagan, ko'pincha qisqartirilgan shaklda jumlaning ajratilgan a'zosidan keyin 的 de sifatida qo'llangan³⁰ va aniq talaffuz qilingan.

是...的 shì...de aniqlovchi konstruksiyasi gapdagi vaqt, joy, harakat holatini, allaqachon sodir bo'lgan ish-harakatni bildiruvchi predikat vositasida aniqlashtirish uchun ishlatiladi. 是 shì bog'lovchi fe'li vaziyatdan oldin, 的 de funksional so'zi gap oxirida qo'yiladi; ba'zan 是 shì bog'lama tushib qolishi mumkin: 客人是十点钟走的 [kèrén shì shí diǎn zhōng zǒu de] – *Mehmonlar (aniq) soat o'nlarda ketishdi*; 你是从哪儿买来这些书的? [nǐ shì cóng nǎ'yer mǎi lái zhèxiē shū de?] – *Bu kitoblarni (aniq) qayerdan sotib oldingiz?*; 我和张同志一起来的 [wǒ hé Zhāng tóngzhì yìqǐ lái de] – *Men o'rtoq Chjan bilan (aniqrog'i) birgalikda keldim*.

²⁸ William Croft. *Radical Construction Grammar: syntactic Theory in Typological Perspective*. – Oxford: Oxford University Press, 2001. – 448 p.

²⁹ O'sha asar.

³⁰ Гуревич И. С. *Историческая грамматика китайского языка: язык прозы на байхуа периода Сун-Юан (пинхуа)*. — СПб.: Петербургское Востоковедение, 2008. – С. 78-79.

Bu konstruksiyaning bo‘lishsiz shakldagi ko‘rinishi quyidagicha: 不是...的 bùshì...de: 我不是昨天来的, 是前天来的 [bǒ bù shì zuótiān lái de, shì qiántiān lái de] – *Men kecha emas, bir kun oldin keldim.*

是...的 shì...de konstruksiyasi maqsadni belgilash uchun ham ishlatiladi: 我是来问您问题的 [wǒ shì lái wèn nín wèntí de] – *Men sizdan so‘rash uchun keldim.* 是...的 shì...de konstruksiyasi harakat mavzusini ta’kidlash yoki aniqlashtirish uchun juda samarali: 这幅画是他染的 [zhè fú huà shì tā rǎn de] – *U bu rasmni chizgan.*

Harakatning maqsadi yoki predmetini ko‘rsatganda, 的 de har doim gapning oxirida qo‘yiladi.³¹

是...的 shì...de konstruksiyali tuzilmalar quyidagi sintaktik va semantik xususiyatlarga ega bo‘ladi:

Tuzilishi jihatidan: ega+是+kesim (predikat guruhi) +的 bog‘lama 是 predikat turkumi oldiga, 的 qo‘shimchasi esa gap oxirida qo‘yiladi: 我是昨天回来的 [wǒ shì zuótiān huílái de] – *Men kecha qaytdim* (so‘zlovchining allaqachon qaytib kelganligi vaziyatdan aniq, gap aynan qachon sodir bo‘lganligini bildiradi).

Ma’no nuqtai-nazaridan. 是...的 shì...de konstruksiyasi matnda ifodalanayotgan harakatning sodir bo‘lganiga oid ma’lumotdan tashqari, unda berilayotgan kesim guruhiga oid bo‘lak ifodalayotgan yangi ma’lumotni ajratib ko‘rsatadi. Quyida 是...的 shì...de konstruksiyasi ifodalashi mumkin bo‘lgan asosiy holatlar keltiradi:

是...的 shì...de konstruksiyali jumalarda so‘zlovchi ish-harakatning haqiqatligini bilish istagi yuzaga keladi, shuning uchun bu konstruksiyadan foydalanish uchun ma’lum pragmatik kontekst kerak bo‘ladi.

是...的 shì...de konstruksiyasi faqat zamonaviy xitoy tilida semantik ta’kid yoki gapning u yoki bu qismini aniqlashtirish uchun ishlatiladi. Uning yordamida siz odamga, vaqtga, joyga, usulga, vositaga, harakat mavzusiga, maqsadlarga va hokazolarga hissiy ta’kid berishingiz mumkin. O‘zbek tiliga tarjima qilishda ta’kidlanayotgan bo‘laklardan oldin “*aniq*”, “*barchasi bir xil*” kabi aniqlovchi so‘zlardan foydalanish mumkin.

Shu munosabat bilan konstruksiyaning ikkinchi o‘ziga xos xususiyatiga e’tibor berish kerak, ya’ni 是...的 shì...de konstruksiyasi har doim o‘tmish bilan bog‘lanadi va allaqachon sodir bo‘lgan harakatni tasvirlaydi, shundan so‘ng 了 le (yaqin o‘tgan zamon) va 过 guò (uzoq o‘tgan zamon) vaqt ko‘rsatkichlari qo‘llanilmaydi. O‘tgan zamonning “oddiy” jumlasidan asosiy farqi (ko‘rsatkich 了 le ko‘rsatkichi bilan) 是...的 shì...de asosiy e’tiborni tafsilotlarga qaratadi (shunchaki “keldi” emas, “u yerga qanday yetib keldingiz?”, “nimaga minib

³¹ Ивченко Т.В., Янчинов С. Х. Начальный курс разговорного китайского языка. — М.: АСТ: Восток-Запад, 2007. – С. 81.

oldingiz?”, “qachon keldingiz?” va h.k.). Quyidagi jadvalda qiyosiy ma’lumot beriladi:³²:

了 le	是...的 shì...de
他们去年结婚了 Tāmen qùnián jiéhūn le <i>Ular o‘tgan yili turmush qurishdi</i>	他们是去年结婚的 Tāmen shì qùnián jiéhūn de <i>Ular o‘tgan yili turmush qurishdi</i>
Semantik urg‘u predikatga, ya’ni harakatning o‘ziga (nima qildi?), shuningdek, uning allaqachon bajarilganligiga qaratilgan.	Semantik urg‘u harakat vaqtiga to‘g‘ri keladi (aniq qachon turmush qurgansiz?); shu bilan birga, amalga oshirilgan harakat fakti 是 shì ning aniq va inkor etilmaydi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**是 shì elementli hosilalarning gap va matn derivatsiyasidagi ishtiroki hamda o‘zbek tilidagi muqobillari**” deb nomlanadi va unda 是 shì elementli hosilalarning qo‘shma gap hamda matn tarkibida bajaradigan vazifalari o‘rganilib, ushbu hosilalarining o‘zbek tilidagi funksional-semantik muqobillari aniqlangan.

是 shì ning grammatik maqomi va qo‘shma gap tuzilishidagi ishtiroki to‘g‘risidagi hamda qo‘shma gapning rivojlanishiga oid ma’lumotlar adabiyotlarda kam uchraydi. Qo‘shma gapning paydo bo‘lishiga konstruksiyaning paydo bo‘lishidek qarash o‘rniga, ba’zi olimlar 是 shì ni ta’kid ma’nosida rivojlanganligiga e’tibor qaratishadi.

Shen 是 shì bog‘lamasi shakllanishining sinxron tahlilini taklif qiladi³³. Olimning ta’kidicha, bog‘lama “analogik qorishtiruv” deb atalgan jarayon orqali hosil bo‘ladi. Ushbu talqin “konseptual moslashtirish natijasida paydo bo‘ladigan ma’no” sub’yektiv o‘ziga xoslikning konstruktiv ma’nosiga ega bo‘lgan gap shakliga tegishli: 他是昨天出的医院 (的) [tā shì zuótiān chū de yīyuàn (de)] – *U kecha kasalxonadan chiqqan edi.*

Boshqa bir guruh olimlar xitoy tilidagi ergash gaplar ingliz tilidagi “it” soxta izohlovchi ishtirok etgan ergash gapiga teng deb qayd etishadi. Bundan keyingi o‘rinlarda kelgan izohlovchi so‘z ingliz tilidagi “it” soxta izohlovchi ishtirok etgan ergash gaplarga teng bo‘ladi. Soxta izohlovchili ajratilgan bo‘laklar esa teng ma’no asosida bog‘langanligi uchun ular erkin o‘rin almasha oladi. 昨天做的是蛋糕 [zuótiān zuò de shì dàngāo] – *Kecha tayyorlangan narsa - bu tort misoli* 蛋糕是昨天做的 [dàngāo shì zuótiān zuò de] – *Tort kecha tayyorlangan edi* misolining aks varianti va bu misollar bir xil ma’noga ega, shuning uchun ular soxta-bog‘lama bo‘lakli gaplar sifatida qaralishi mumkin.

³² Shin Yong Robson. Speed Up Your Chinese: Strategies to Avoid Common Errors. – London, New York: Routledge, 2013. – P. 80.

³³ Shen Jiakuan. Moving what? On emotional movement in Ta shi qunian sheng de haizi(他是去年生的孩子). //Studies of The Chinese Language, 2008, Issue 5. 2008. – P. 387-395.

Bizningcha, 昨天做的是蛋糕 [zuótiān zuò de shì dàngāo] – *Kecha tayyorlangan narsa - bu tort* misoli zamonaviy xitoy tilida soxta- bog'lama bo'lak bo'lishi mumkin va bog'lovchi birlik bo'lib kelgan 蛋糕 dàngāo “*tort*” so'zi zidlikni ifodalaydi.

Bizningcha, 是 shì zamonaviy xitoy tilidagi mutlaq qo'shma fe'l hisoblanadi va ajratilgan bo'lak konstruksiya ega bilan otlashtiruvchi vosita 的 de deb belgilanadigan qo'shma fe'l 是 shì dan tashkil topadigan strukturadir. Konstruksion grammatika nazariyasiga asoslanib, biz bog'lama konstruksiyasini shakl va ma'no juftligi deb hisoblaymiz.

Qismlarining semantik bog'lanishi va ularning o'zaro munosabatiga ko'ra xitoy tilida bog'lovchilar to'qqiz turkumga bo'linadi, ularning har biri o'ziga xos semantik va funksional xususiyatlarga ega. Quyida biz 是 shì unsurining boshqa bir so'z yoki qo'shimchalar bilan birikib, bog'lovchi vazifasida qo'llanish holatlarini ko'rib chiqamiz:

1. Biriktiruvchi bog'lovchilar (gapning bir turkumga mansub bo'laklarini bog'lashda va qo'shma gapning bir turga mansub qismlarini bog'lashda qo'llanadi).

2. Zidlov bog'lovchilar (gapning bir turkumga mansub bo'laklarini bog'lashda va qo'shma gapning bir turga mansub qismlarini bog'lashda qo'llanadi).

3. Ayiruv bog'lovchilar (gapning bir turkumga mansub bo'laklarini bog'lashda va qo'shma gapning bir turga mansub qismlarini bog'lashda qo'llanadi).

4. Taqqoslovchi bog'lovchilar (gapning bir turkumga mansub bo'laklarini bog'lashda va qo'shma gapning bir turga mansub qismlarini bog'lashda qo'llanadi).

5. Maqsadli bog'lovchilar (murakkab qo'shma gaplarda va ergashtiruvchi bog'lovchili qo'shma gaplarda qo'llaniladi).

6. Sabab bog'lovchilari (murakkab qo'shma gaplarda va ergashtiruvchi bog'lovchili qo'shma gaplarda qo'llaniladi).

7. Shart bog'lovchilari (murakkab qo'shma gaplarda va ergashtiruvchi bog'lovchili qo'shma gaplarda qo'llaniladi).

8. To'siqsiz bog'lovchilar (murakkab qo'shma gaplarda va ergashtiruvchi bog'lovchili qo'shma gaplarda qo'llaniladi).

9. Qiyoslovchi bog'lovchilar (murakkab qo'shma gaplarda va ergashtiruvchi bog'lovchili qo'shma gaplarda qo'llaniladi).

Bog'lama fe'llarning leksik ma'nosi odatda juda mavhum bo'lib, ularning asosiy roli ega va to'ldiruvchi o'rtasida ma'lum bir bog'lanishni o'rnatishdir. Shuning uchun, bog'lovchi fe'ldan keyin ko'pincha to'ldiruvchi turadi va bu fe'llarning aksariyati uchun to'ldiruvchini tushirib qoldirib bo'lmaydi. Son jihatdan bog'lovchi fe'llar kam, bular asosan, 是 shì bog'lamasi “bo'lmoq”, “paydo bo'lmoq”, 叫 jiào “chaqirmoq”; “chaqirilmoq”; 姓 xìng “familiya”, 当作

dàng zuò “hisobga olmoq”; 成为 chéng wéi “kingadir aylanmoq”; 像 xiàng “o’xshamoq”, 等于 děngyú “tenglashmoq” anglatadi.

Venyanning ko’rsatish olmoshlari haqida fikr yuritishda quyidagilarni ta’kidlash kerak: 是 shì bog’lamasi “bu, o’sha”; masofa bo’yicha aniqlanishi bo’lmagan olmosh (ya’ni, “bu, o’sha” degan ma’noni anglatadi) gapda ega vazifasini bajarishi mumkin (ko’pincha, ayniqsa 也 yě bilan bo’lishning qurilishi, shu bilan birga, avval aytib o’tilgan egani ikkilantiradi, ibora bilan ifodalangan: 是謂棄之也 shì wèi qì zhī yě “bu unga xiyonat qilish (demakdir)” yoki to’ldiruvchi va shuningdek, va shuningdek, ko’plab bog’lovchi iboralarning bir qismi bo’lib keladi³⁴. Matnda 是故 shì gù “shuning uchun, shu sababli”: 嘉庆道光年间的中国人当然不认识那个西方世界。直到现在，我们还不敢说我们完全了解西洋的文明。不过有几点我们是可断定的。第一，中华民族的本质可以与世界上最优秀的民族比。中国人的聪明不在任何别的民族之下。第二，中国的物产虽不及俄、美两国的完备，然总在一般国家水平线之上。第三，我国秦始皇的废封建为郡县及汉唐两朝的伟大帝国足证我民族是有政治天才的。是故论人论地，中国本可大有作为。然而到了十九世纪，我民族何以遇着空前的难关呢？第一是因为我们的科学不及人。人与人的竞争，民族与民族的竞争，最足以决胜负的，莫过于知识的高低。科学的知识与非科学的知识比赛，好像汽车与洋车的比赛。在嘉庆道光年间，西洋的科学基础已经打好了，而我们的祖先还在那里作八股文，讲阴阳五行。第二，西洋已于十八世纪中年起始用机械生财打仗，而我们的工业、农业、运输、军事，仍保存唐宋以来的模样。第三，西洋在中古的政治局面很像中国的春秋时代，文艺复兴以后的局面很像我们的战国时代。在列强争雄的生活中，西洋人养成了热烈的爱国心，深刻的民族观念；我们则死守着家族观念和家乡观念。所以在十九世纪初年，西洋的国家虽小，然团结有如铁石之固；我们的国家虽大，然如一盘散沙，毫无力量。总而言之，到了十九世纪西方的世界已经具备了所谓近代文化。而东方的世界则仍滞留于中古，我们是落伍了！³⁵

是 shì bog’lovchi sifatida qo’llanila boshlanganidan keyin, uning ko’lami kengayib boravergan.

是 shì ko’proq qo’shimcha vazifasiga xoslanib, leksik mazmuni bo’sh so’zlarga o’xshab qoladi va sof bog’lama bo’lmaydi.

1. Biror fikr yoki dalilni tasdiqlash yoki rad etish: 想是没了，就只有这个 [xiǎng shì méiliǎo, jiù zhǐyǒu zhège] – *Menimcha, boshqa yo’q, faqat shu qoldi*; 他去了，便是回苏州去了 [tā qùle, biàn shì huí sūzhōu qùle] – *U ketdi, aynan Sujouga qaytib ketdi*;

2. Sababini tushuntirish: 况他吩咐你几句话，不过是怕你在那里淘气 [kuàng tā fēnfù nǐ jǐ jù huà, bùguò shì pà nǐ zài nàlǐ táoqì] – *U sizga bir nechta ko’rsatma bermoqchi, chunki u yerda siz afsuslanishingizdan qo’rqadi*; 昨日已好

³⁴ Карпека Д.А. Сравнительная грамматика классического китайского языка вэньян и современного литературного китайского языка путунгуа. – С.-Петербург: Восточный экспресс, 2020. – С. 545-578.

³⁵ 汉语语料库 (http://ccl.pku.edu.cn:8080/ccl_corpus/search)

了些，今日如何反虚浮微缩起来？敢是吃多了饮食？不然，就是劳了神思 [zuórì yǐ hǎole xiē, jīnrì rúhé fǎn xūfú wéisuō qǐlái? Gǎn shì chī duōle yǐn shí? Bùrán, jiùshì láole shénsī] – *Kecha u allaqachon o‘zini yaxshi his qilardi, qanday qilib bugun [puls] yana beqaror va zaiflashdi? U – juda ko‘p ovqatlangani uchun bo‘lsa kerak? Yoki charchaganingiz uchunmi?*

3. 是 shì bog‘lamasi uchunchi darajali so‘z ko‘rsatkichi sifatida. Nazariy jihatdan 是 shìning qatnashishi shart emas, lekin nutqiy tuzilmaning emotsional ohangini aniqroq qiladi: 只是太富丽了些 [zhǐshì tài fùlìle xiē] – *Bu xona juda hashamatli; 先是进内去和尤氏并丫头姬妾说笑了一会 [xiānshì jìn nèi qù hé yóu shì bìng yātou jī qiè shuōxiàole yī huǐ] – U avval yotoqxonalariga borib, YU, kanizaklar bilan bir muddat gaplashib, hazillashib o‘tirdi.*

是 shì bog‘lamasi 有道理 yǒu dào lǐ “to‘g‘ri” ga taxminan mos keladi: 要如此方是 [yào rúcǐ fāng shì] – *Bu faqat shu tarzda ketadi; 倒是让他一步为是 [dǎoshì ràng tā yībù wéi shì] – Shunga qaramay, unga taslim bo‘lish yaxshiroqdir; 二人皆说：是极！ [èr rén jiē shuō: shì jí!] – Ikkalasi ham: “Siz mutlaqo haqsiz!”*

是 shì bog‘lamasi xushmuomala kelishuv yoki itoatkorlikni ifodalash uchun ishlatiladi: 贾政忙躬身答道：是 [jiǎ zhèng máng gōng shēn dá dào: shì] – *Jia Djeng shosha-pisha ta‘zim qildi va javob berdi: “Ha!”;*

Shunday qilib, 有 yǒu, 是 shì bog‘lamasi va 在 zài bo‘lgan jumlar o‘xshash tarkib elementlariga ega (to‘ldiruvchi va shu to‘ldiruvchi bilan bog‘langan ba‘zi makon), lekin 有 yǒu/是 shì bog‘lamasi bo‘lgan gaplar va 在 zài bo‘lgan gaplar bu elementlarni turli ketma-ketlikda joylashtiradi.

Ba‘zi tadqiqotchilar ikki tili chog‘ishtirma tadqiq etishning asosiy maqsadi qiyoslanayotgan tillarning grammatik tizimidagi farqlarni aniqlashdan iborat deb hisoblaydi. Masalan, Qozon universiteteining professori L.K.Bayramova qiyosiy grammatikani tillar o‘rtasida o‘ziga xos farqlarni tavsiflovchi soha sifatida talqin qiladi.³⁶ Holbuki, V.N.Yarseva o‘zining “Kontrastivnaya grammatika” kitobida tillarni chog‘ishtirma o‘rganish ular tizimida hech bo‘lmaganda bir o‘xshash tomon bo‘lganidagina samarali bo‘lishini alohida ta‘kidlagan edi³⁷.

Mazkur tadqiqotimizda xitoy tilidagi 是 shì birligining funksional-semantik jihatlarini aks ettiruvchi o‘zbek tilidagi muqobillarini aniqlash maqsadi ko‘zlandi. Bunday maqsadga erishish uchun 是 shì unsuri ishtirokidagi matn namunalarini ularning o‘zbek tiliga qilingan tarjimalari bilan qiyoslash usulidan foydalanildi.

是 shì unsuri bog‘lama maqomida ishlatilganida gapning egasi va kesimning (ba‘zan to‘ldiruvchining ham) o‘zaro aloqasini shakllantiradi. Bunda 是...的 shì...de tuzilmasi keyingi o‘rinda kelayotgan birlikni nominallashtirish uchun xizmat qiladi. Bog‘lama fe‘llar qariyb barcha tillarda ot, sifat, son, olmosh yoki holat ma‘nosini ifodalaydigan so‘zlar bilan ifodalangan predikativni, ya‘ni kesimning qismini ega bilan bog‘laydi va ma‘noli bo‘laklarga ajralmaydi.³⁸

³⁶ Байрамова Л.К. Введения в контрастивную лингвистику. – Казань: Изд-во КГУ, 2004. – 112 с.

³⁷ Ярцева В.Н. Контрастивная грамматика. – М.: Наука, 1981. – 112 с.

³⁸ Жалолова Ш. Инглиз ва ўзбек тилларида феъл таснифи: – Т.: Университет, 2017. – 92 б.

O'zbek tilshunosligining yetakchilaridan bo'lgan A.G'ulomov o'tgan asrning o'rtalaridayoq bog'lamani kesimni shakllantiruvchi, fe'l bo'lmagan so'zlar bilan qo'shib, modallik, zamon, mayl, shaxs-son ma'nolarini ifodalovchi so'z sifatida ta'riflagan edi.³⁹ Lekin B.Sodiqov bog'lamaning vazifasi doirasini faqat kesim bilan chegaralash tarafdori emas. Buning isboti uchun u Hamid Olimjonning she'ridan olingan quyidagi parchani keltiradi:

*Inson kelsin, ona o'zinga
Tutqin bo'lib, o'sgan ko'zingga
Rozilik ber, odam bo'l sen ham,
Saodat top va bo'lmagin kam.*

Olimning fikricha, *odam bo'l, kam bo'lmagin* birikuvlarida *bo'l* yordamchisi kesim tarkibida bog'lama vazifasida kelgan. Biroq shu misoldagi *tutqin bo'lib* birikuvida *bo'l* yordamchisi fe'lining formasi kesim tarkibida emas.⁴⁰ Shuning bilan birgalikda, bu holatda ham *bo'l* yordamchi fe'li bog'lama vazifasini bajarayotgan e'tirof etiladi.⁴¹

Buning isbotini xitoy tilidagi 是 shì elementi ishtirok etgan nutqiy tuzilmalarning o'zbek tilidagi tarjimalari bilan qiyosida ko'rishimiz mumkin: 1. 女娲是中国历史神话传说中的一位女神。是中华民族伟大的母亲，她慈祥地创造了我们，又勇敢地照顾我们免受天灾。是被民间广泛而又长久崇拜的创世神和始祖神⁴² [nǚ wā shì zhōngguó lìshǐ shénhuà chuánshuō zhōng de yī wèi nǚshén. shì zhōnghuá mínzú wěidà de mǔqīn, tā cíxiáng dì chuàngzàole wǒmen, yòu yǒnggǎn de zhàogù wǒmen miǎn shòu tiānzāi. Shì bèi mǐnjiān guǎngfàn ér yòu chángjiǔ chóngbài de chuàng shì shén hé shǐzǔ shén] – *Nyuva Xitoy tarixiy afsonalari orasidagi ayol ilohlardan bo'lib, xitoy millatining buyuk onasidir*⁴³.

O'zbek tilidagi "qilmoq" va "bo'lmoq" fe'llari mustaqil fe'l sifatida qo'llanish bilan bir qatorda, bog'lama vazifasida qo'llanilib, asosiy qismdagi predmet va belgini atab, ko'rsatadi⁴⁴.

Zamonaviy xitoy tilida 是 shì birligining ko'rsatish olmoshi vazifasini bajarish imkoniyati uning tarixiy rivoji bilan bog'liq. Xitoyshunos olimlar 是 shì bog'lamasi qadimgi xitoy tilidagi ko'rsatish olmoshidan taraqqiy qilganini qayd etadilar. Zamonaviy xitoy tilida 是 shì unsurining ko'rsatish olmoshi vazifasida qo'llanishi juda kam holatda kuzatiladi. Masalan, 富与贵，是人之所欲也；不以其道得之，不外也。贫与贱，是人之所恶也，不以其道得之，不去也⁴⁵ [fù yǔ guì, shì rén zhī suǒ yù yě; bù yǐ qí dào dé zhī, bù wài yě. Pín yǔ jiàn, shì rén zhī suǒ è yě, bù yǐ qí dào dé zhī, bù qù yě] – *Pul va maqom bu hamma xohlagan narsadir, lekin oliyjanob inson unga ega bo'lish uchun adolatsiz usullardan*

³⁹ G'ulomov A. Sodda gap. – T.: o'qituvchi, 1955. – B. 56.

⁴⁰ Sodiqov B. Hozirgi o'zbek adabiy tilida bog'lama. – T.: Fan, 1984. – 86 b.

⁴¹ Hojiyev A. Fe'l. – T.: Fan, 1973. – B. 11.

⁴² Erkin Musurmanov, Ma Sui Ling. Xitoy folklori (Afsona va ertaklar), "Osmonni yamagan Nyuva" afsonasi". – Samarqand: – B. 92.

⁴³ Ўша асап. – B. 96.

⁴⁴ Yusupxo'jayeva H. O'zbek tili izohli lug'atida fe'llarning ishlanishi. – T.: Fan, 1988. – B. 78.

⁴⁵ 蔡希勤. 孔子说:论语—里仁. 华语教学出版社.2006. –页 39.

foydalanmaydi. *Qashshoqlik va pastkashlik bu hamma uchun yoqmagan narsalar, ammo janob ulardan qutulish uchun nohaq usullarni qo‘llamaydi.*⁴⁶

ko‘rsatish olmoshlari shaxs, predmet yoki belgini ko‘rsatish, ta’kidlash uchun ishlatiladigan so‘zlar bo‘lib, o‘zbek tilida bular qatoriga *bu, o‘sha, shu* kabi so‘zlar kiritiladi. “O‘zbek tili grammatikasi” asarining mualliflari ko‘rsatish olmoshlarini ma’noga ko‘ra ikki guruhga ajratadi: konkret ko‘rsatish olmoshlari (*shu, o‘sha*) va konkret bo‘lmagan ko‘rsatish olmoshlari (*u, bu*).

Xitoy tilidagi 是 shì elementi ifodalayotgan ko‘rsatish olmoshi har ikkala ko‘rinishda namoyon bo‘lishi mumkin. Ushbu elementning konkret va konkret bo‘lmagan ko‘rsatish olmoshi vazifasida qo‘llanishi va ularning o‘zbek tilidagi funksional muqobillarini quyidagi misollarda kuzatamiz. Masalan, 过而不改，是谓过矣⁴⁷ [guò ér bù gǎi, shì wèiguò yǐ] – *Xato bo‘la turib uni to‘g‘rilamaslik, bu xatodir*⁴⁸; 知之为知之，不知为不知，是之也⁴⁹ [zhī zhī wéi zhī zhī, bù zhī wéi bù zhī, shì zhī yě] – *Tushunganda gapirish, tushunmaganda sukut saqlash lozim, o‘sha onda aqlli inson bo‘ladi*⁵⁰.

R.Sayfullayeva qo‘shma gaplar formal-funksional tuzilishini o‘rganayotib, mustaqil qo‘llanish imkoniyatiga ega bo‘lgan ikki qismlardan ikkinchisining boshida qo‘llanishi meyoriy bo‘lmagan birlik, ya’ni bog‘lovchi kelishini kuzatadi. Bunda olim a o‘zbek tilshunosligi uchun yangi bir xulosacha qiladi: “gap nutqiy hosila sifatida faqatgina maxsus tugallanishi ohangiga emas, balki maxsus bog‘lanish ohangiga ham egadir”.⁵¹

Xitoy tilidagi 是 shì unsuri ishtirokida hosil bo‘ladigan qo‘shma gaplar xuddi shunday xususiyatga ega bo‘lishi mumkin va bunda 是 shì unsuri bog‘lovchi vazifasini bajaradi. Qiyoslang: 过了一年，大青死了，某甲想再捉一条蛇来补大青的缺，就是没有时间⁵² [guòle yī nián, dà qīng sǐle, mǒu jiǎ xiǎng zài zhuō yītiáo shé lái bǔ dà qīng de quē, jiùshì méiyǒu shíjiān] – *Oradan bir yil o‘tib, Daqing nomli iloni o‘libdi. Moujia uni o‘rniga boshqa bir ilon tutmoqchi bo‘libdi. Ayni vaqt topa olmabdi*⁵³.

Xitoy va o‘zbek tillaridagi misollardan kelib chiqib, shunday xulosa chiqarish mumkin: 1) xitoy tilida 是 shì elementi turli so‘zlar bilan birikuv hosil qilib, gapda o‘zining asl vazifasida emas, balki alternativni ifodalovchi bog‘lovchi, shart bog‘lovchi, aniqlov bog‘lovchi va zidlov bog‘lovchi vazifasini bajarib kela oladi; 2) 是 shì elementi bog‘lovchi vazifasida kelganida o‘zbek tilidagi muqobillari sifatida zidlov bog‘lovchilari *ammo, lekin biroq*, ayiruv bog‘lovchisi

⁴⁶ Maxmutxodjaev M. Suhbat va mulohazalar (Konfutsiy). – T.: Yangi asr avlodi. – B.105.

⁴⁷ 蔡希勤. 孔子说:论语—卫灵公. 华语教学出版社. 2006. –页 47.

⁴⁸ Maxmutxodjaev M. Suhbat va mulohazalar (Konfutsiy). – T.: Yangi asr avlodi. – B. 186.

⁴⁹ 蔡希勤. 孔子说: 论语—为政. 华语教学出版社. 2006. –页 181.

⁵⁰ Qosimov I. Donishmandlik sabog‘i. T.: Yangi asr avlodi. 2015. – B. 122.

⁵¹ Sayfullayeva R.R., Hozirgi o‘zbek tilida qo‘shma gaplarining formal-funksional talqini. – T.: Fan, 1994. – B. 309-310.

⁵² Ziyamuhamedov J.T., Shamsiyeva Z.F. “Liao Zhai (Pu Sung Ling) novellalari”. Toshkent:Muharrir. 2012. – B. 10.

⁵³ Ўша асар. – B. 14 .

yo..yo, ergashtiruvchi aniqlov bog‘lovchisi *agarda*, shart bog‘lovchisi *agar*, *agarda*, *garchi* larni keltirib o‘tishimiz mumkin.

Xitoy tilidagi 是 shì birligining kiritma, so‘z gap vazifasida qo‘llanishida uning o‘zbek tilidagi muqobillari ham xuddi shunday vazifa bajarishi kuzatiladi.

- 鬼姑子接着说, “你五年前, 不是在华山路上曾经向猎人买了一只活璋子放掉了吗?”

- “是呀, 有这么回事”⁵⁴

- *Hua Guzi gapida davom etib: uSen besh yil oidin, Hua tog‘ida bir ovchidan suv kiyigini sotib olib yana qo‘yib yuborganmiding?”*

- “**Ha**, shunday bo‘lgan edi.”⁵⁵

是 shì elementining ta‘kid vazifasi o‘zbek tilidagi tarjima matnlarida o‘ziga xos ravishda ifoda topadi: 老虎从后面赶上来, 对着狮子咆哮说: “她是我先抓到的, 说好她补完天后让我吃, 你竟敢抢先?”⁵⁶ [Lǎohǔ cóng hòumiàn gǎn shànglái, duìzhe shīzi páohǒu shuō: “Tā shì wǒ xiān zhuā dào de, shuō hǎo tā bù wán tiānhòu ràng wǒ chī, nǐ jìng gǎn qiǎngxiān?”] – *Orqadan keksa arslon sherga jahl bilan baqirdi: “Bu qizni men birinchi tutib oldim, u osmonni yamab bo‘lganidan so‘ng uni yemoqchiman. Sen uni to‘xtatishga haqqing yo‘q!”*⁵⁷;

XULOSA

1. 是 shì elementi bog‘lama sifatida milodiy 500-yillar atrofida shakllangan va keng tarqala boshlagan. Mazkur tadqiqotda bog‘lamaning uchta asosiy manbasi — ravishdan, qadimgi xitoy tilida bog‘lovchi ma‘nosini ifodalovchi yordamchi so‘zdan yoki tarkibida 也 yě yordamchi so‘zi bo‘lgan jumlaning qisqarishi natijasida hosil bo‘lgani haqidagi farazlar kiritildi. 是 shì elementining zamonaviy xitoy nutqiy tuzilmalarida ko‘rsatish olmoshi vazifasini bajarishi esa uning ushbu olmoshdan rivojlanganligiga ishora qiladi. Bu tarzda grammatikallashuv jarayoni yuzaga kelinishiga sabab nutqiy tuzilmaning predikativ va izohlovchi qismlari o‘rtasidagi munosabatni shakllantiruvchi anaforik birlikning ta‘sirida izohlovchi qism bog‘lama ma‘nosini kasb etishi bilan bog‘liqdir.

2. 是 shì elementining gap va matn derivatsiyadagi ishtiroki uning tizimli ravishda bog‘lama fe‘l vazifasini bajarashida namoyon bo‘ladi. Ushbu bog‘lama nutqiy tuzilma matnida mazmuniy qarama-qarshiliklarni shakllantiradi. Xususan, so‘zlovchi bog‘langan gaplarni talaffuz qilayotganida 是 shì unsuridan keyin pauza saqlansa, tinglovchi uchun mazmunni anglash qiyinlashadi. Faqat murakkab tartibli nutqiy tuzilma to‘liq talaffuz qilinganidagina tinglovchi

⁵⁴ Ziyamuhamedov J.T., Shamsiyeva Z.F. “Liao Zhai (Pu Sung Ling) novellalari”. Toshkent: Muharrir. 2012. – B. 56.

⁵⁵ O‘sha asar. – B. 68.

⁵⁶ Musurmanov E., Ma Sui Ling. Xitoy folklori (Afsona va ertaklar). – Samarqand: – b. 91.

⁵⁷ O‘sha asar. – b. 94.

kontekstdan qarama-qarshi qo'yilayotgan ma'noni to'liq anglashi mumkin. Shu yo'sinda, bog'lama tuzilma remani belgilovchi birlikka aylanadi. Shuningdek, 是 shì elementi ayrim vaziyatlarda ta'kid belgisi vazifasini ham bajaradi. Xitoy tili gapning struktur tuzilishiga ko'ra fe'l gapning o'rtasida keluvchi tillar turkumiga kirgani bois, mantiqiy urg'u gap tarkibida fe'ldan keyin keluvchi elementga tushadi va buning natijasida axborotning asosini ifodalovchi kuchli intonatsiya bilan ajratilmay qolib ketadi.

3. 是 shì bog'lamasi ega va kesim orasidagi aloqa, munosabatni shakllantiradi, shuningdek, mavjudlikni bildiradi. Bunday munosabatlar voqelanishida turli xildagi nominal ma'nolar aks topadi. Bunday vazifada qo'llangan 是 shì bog'lamasi ko'pincha zamonaviy xitoy tilidagi 有 yǒu "ega bo'lmoq" fe'li bilan taqqoslanadi. Xitoy tilida mavjudlikni ifodalovchi muzkur fe'llar o'rtasidagi farq nutqiy tuzilmalar hosil bo'lishida aks topadi. 是 shì bog'lamasi maxsus aksent bilan ajratilganda esa "ha, haqiqatan, juda to'g'ri, haqiqatda" ma'nosini bildiradi. Bunda bog'lama suhbatdosh taxminining to'g'riligini tasdiqlash uchun yoki suhbatdosh unga berilgan ma'lumotdan shubhalanishi, shubhasini rad etish uchun ishlatiladi.

4. 是 shì bog'lamasi tuzilmasining paydo bo'lishi bog'lovchi vosita orqali grammatik konstruksiya yasaliş jarayoni bo'lib, bunda mavzuga asoslangan qayta tahlil tuzilishni o'z ichiga oladi hamda bu holat qayta yasaliş va qayta kategoriyalanish, ya'ni 是 shì bog'lamasi mavzuni ifodalovchi anaforani 是 shì ko'rsatish olmoshi bilan ifodalash natijasida yuzaga keladi. shuningdek, 是 shì bog'lamasi – tuslanmaydigan fe'l bo'lib, ma'lum leksemalar bilan birikkan holda birgalikda gapning kesimini hosil qiladi, semantik jihatdan bog'langan gapning ma'nosini ifodalay oladi.

5. 是 shì zamonaviy xitoy tilidagi mutlaq qo'shma fe'l hisoblanadi va ajratilgan bo'lak konstruksiya ega bilan otlashtiruvchi vosita 的 de deb belgilanadigan qo'shma fe'l 是 shì dan tashkil topadigan struktura hisoblanib, konstruksion grammatika nazariyasiga asoslanib, bog'lama konstruksiyasini shakl va ma'no juftligi hosil qilmasligini hamda bunda shakl otli birikma/bog'lama/otlashishdan iborat va maxsus ma'no qarama-qarshi yo'naltirilgan holda bo'lishini, ushbu konstruksiya ko'proq sxematik bog'langan yasalişning tagsxemasi hisoblanishini, u 是 shì bog'lamasi orqali ifodalangan taxmin va tasdiqni bildirishini qayd etish lozim.

6. 是...的 shì...de aniqlovchi konstruksiyasi gapdagi vaqt, joy, harakat holatini, allaqachon sodir bo'lgan ish-harakatni bildiruvchi predikat vositasida aniqlashtirish uchun ishlatiladi. 是 shì bog'lovchi fe'lli vaziyatdan oldin, 的 de

funksional soʻzi gap oxirida qoʻyiladi. Baʼzan 是 shì bogʻlamasi tushib qolishi mumkin. Oʻzbek tilida esa taʼkidlanayotgan soʻz feʼldan oldinga joylashtiriladi. Xitoy tilida oʻzbek tilidan farqli ravishda gapda bir vaqtning oʻzida vaqt, joy, harakatga eʼtiborni qaratish mumkin.

7. Xitoy tilida 是 shì elementi turli soʻzlar bilan birikuv hosil qilib, gapda oʻzining asl vazifasida emas, balki alternativ bogʻlovchi, shart bogʻlovchi, aniqlov bogʻlovchi va zidlov bogʻlovchi vazifasini bajarib kela oladi. Aynan mana shu funksiyasida oʻzbek tilidagi muqobillari sifatida zidlov bogʻlovchilari *ammo, lekin biroq*, ayiruv bogʻlovchisi *yo..yo*, ergashtiruvchi aniqlov bogʻlovchisi *agarda*, shart bogʻlovchisi *agar, agarda, garchi* lar ekanligi aniqlandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

ТУХТАМИШЕВ АБДУРАСУЛ АБДУРАЗЗОК УГЛИ

**ФУНКЦИОНАЛЬНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОИЗВОДНЫХ С
ЭЛЕМЕНТОМ “是 SHÌ” В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ И ИХ ЭКВИВАЛЕНТЫ В
УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание,
переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии по филологическим наукам (PhD)**

Самарканд – 2024

Тема диссертации доктора философии по филологическим наукам (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2021.1.PhD/Fil1665.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский) размещён на веб-сайте Научного совета www.samdchti.uz, а также на информационном образовательном портале «Ziyonet» www.ziyonet.uz.

Научный руководитель:	Сафаров Шахриёр Сафарович доктор филологических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Хайруллаев Хуршид Зайниевич доктор филологических наук, профессор
	Носирова Саодат Абдуллаевна доктор филологических наук, профессор
Ведущая организация:	Узбекский государственный университет мировых языков

Защита диссертации состоится на заседании научного совета по присуждению учёных степеней PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 при Самаркандском государственном институте иностранных языков «___» _____ 2024 года в ___ (Адрес: 140104, Узбекистан, Самарканд, улица Бустонсарой, дом 93. Тел.: (99866) 238-29-37; факс: (99878) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрирована за номером _____). Адрес: 140104, Узбекистан, Самарканд, улица Бустонсарой, дом 93. Тел: (99866) 238-29-37.

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2024 года.
(протокол реестра № ___ от «___» _____ 2024 года).

А.А.Яхшиев

Председатель учёного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, профессор

Г.К.Мирсанов

Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, доцент

Н.З.Насруллаева

Заместитель председатель научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировой лингвистике изучение участия языковых единиц в языковой реализации мировой сцены признается одной из проблем антропоцентрического подхода. Сходства и различия между системами концептуального моделирования, специфичными для любого языка, служат основой теоретических взглядов на лингвистические категории. В последние годы появились новые подходы к исследованию системы иностранных языков, особенно в связи с грамматической природой, способами выражения смысла и прагматическими возможностями. Среди них остается актуальной проблема определения статуса грамматических функциональных элементов, активно участвующих в речевой системе, и выяснения возможностей их выражения.

В научных центрах мира особое внимание уделяется исследованиям, способствующим пониманию концептуального ландшафта мира и его языкового выражения. Известно, что в области китаеведения функциональные и смысловые характеристики китайского элемента 是 shì до конца не объяснены. Принимая это во внимание, в данном исследовании наряду с анализом системных особенностей и этапов развития данного элемента планируется выявить его альтернативы в узбекском языке. Актуальность данной темы определяется необходимостью изучения функционально-семантического статуса производных с элементом 是 shì. Ведь выявление специфических закономерностей языков имеет актуальное значение для развития науки. Определение межъязыковых альтернатив, методическое определение аламорфных и изоморфных падежей между ними является важным требованием современной кросслингвистики.

В период комплексных реформ в нашей стране сотрудничество между Узбекистаном и Китайской Народной Республикой вышло на новый уровень, крепнут связи между двумя странами в области науки, культуры и экономики. Как отметил Президент Ш.М.Мирзиёев, «Узбекистан рассматривает Китай как страну с многовековой историей и уникальной культурой, обладающую огромным потенциалом, являющуюся одним из лидеров мировой экономики и уверенно продвигающуюся по пути достижения своих целей»⁵⁸. Особое значение для реализации задач в этом плане имеют научное изучение грамматических и лексических явлений, характерных для системы китайского языка, и формулирование важных рекомендаций по языковому образованию.

Настоящее диссертационное исследование вносит вклад в реализацию задач, определенных Постановлением Президента Республики Узбекистан ПП-3775 от 5 июня 2018 года «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и

⁵⁸ Мирзиёев Ш.М. Выступление на встрече с Председателем КНР Си Цзиньпином в ходе государственного визита в КНР 11 мая 2017 г. // Узбекистан – Китай: по пути дальнейшего развития стратегического партнерства и дружеских отношений: www.uza.uz 12-05-2017.

обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах», Указом Президента Республики Узбекистан №УП-5847 от 29 апреля 2020 года «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», Постановлением Президента Республики Узбекистан ПП-4680 от 16 апреля 2020 года «О мерах по кардинальному совершенствованию системы подготовки кадров и повышению научного потенциала в области востоковедения», Постановлением Президента Республики Узбекистан ПП-4963 от 25 января 2021 года «О мерах по поддержке научно-исследовательской деятельности и внедрению системы непрерывного профессионального развития в сфере народного образования», Постановлением Президента Республики Узбекистан №ПП-5117 от 8 октября 2019 г. «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан», Постановлением Президента Республики Узбекистан №ПП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы» и другими нормативно-правовыми документами, относящихся к данной сфере.

